

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

«MASHINASOZLIK TEXNANOLOGIYASI» FAKULTETI

«SANOAT ISHLAB CHIQRISHINI TASHKIL ETISH » KAFEDRASI

«TASDIQLAYMAN»
« MASHINASOZLIK TEXNANOLOGIYASI »
fakultet dekani

.....

«__»____ 2016 y.

«HIMOYAGA QO'YILDI» «
SANOAT ISHLAB CHIQRISHINI
TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH »
kafedra mudiri

«__»____ 2016 y.

“Iqtisodiyot” yo'nalishi talabasi

YUSUPOV O'TKIRBEK ZOKIRJON O'G'LINING

««ANDIJON-PAXTA» OAJ PAXTA TOZALASH
KORXONASIDAGI ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI
TARKIBI VA TANNARXNI BOSHQARISH » MAVZUSIDAGI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: dots. M. Yusupova

Andijon-2016 yil

«ANDIJON-PAXTA» OAJ PAXTA TOZALASH KORXONASIDAGI ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI TARKIBI VA TANNARXNI BOSHQARISH

M U N D A R I J A

Kirish	4
I BOB. KORXONALARDA MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH TANNARXINI SHAKLLANISHINING NAZARIY TAVSIFI	
1.1. Mahsulot tannarxi tushunchasi, uning mohiyati, ahamiyati va turlari.....	8
1.2. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlarning guruhlanishi	13
II BOB. «ANDIJON-PAXTA» OAJ MAXSULOT ISHLAB CHIQRISH TANNARXI, XARAJATLARLARNING XOLATI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAXLILI	
2.1 “Andijon - Paxta” ochiq aksiyadorlik jamiyatining tashkiliy huquqiy asoslari	29
2.2 Korxonaning asosiy texnik iqtisodiy ko’rsatkichlari orqali faoliyatini taxlil qilish.....	52
2.3 “Andijon - Paxta” OAJning ishlab chiqarish xarajatlari va tannarx tahlili.....	
III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA KORXONALARDA MAHSULOT TANNARXINI KAMAYTIRISH YO’LLARI	
3.1. Mahsulot tannarxini kamaytirish omillari va manbalari	23
3.2. Korxonalarini modernizatsiyalash – korxonada faoliyatini samaradorligini oshirishning muhim omilidir	46
3.3. “Andijon-Paxta” OAJda mahsulot ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish yo’llari	51
Xulosa	63
Foydalanilgan adabiyotlar	66
Ilovalar	72

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamizda tub islohotlar, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarini izchil isloh etish va liberallashtirish, jamiyatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlari jadal sur`atlar bilan rivojlanib bormoqda.

Iqtisodiyotning izchil va barqaror rivojlanishini ta`minlashda kelgusi davr uchun puxta va har tomonlama asoslangan chora-tadbirlar, muhim vazifa va yo`nalishlar, turli darajalardagi iqtisodiy taraqqiyot dasturlarning ishlab chiqilishi va aniq belgilab olinishi muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. Ayni paytda, bosib o`tilgan yo`l–oldingi davrdagi erishilgan yutuq va natijalarni tanqidiy baholash orqali tegishli xulosalar chiqarish, ular asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini yanada takomillashtirib borish ham muhim printsiplial ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda moderinzatsiyalash qilish sharoitlarida barqaror o`shish sur`atlariga erishish va tanlangan mustaqil taraqqiyot yo`limiz xamda unga muvofiq amalga oshirilayotgani iqtisodiy siyosatimizning nechog`liq to`g`ri ekanligini yana bir bor tasdiqlamoqda.

“Hozirgi kunga kelib iqtisodiyotimiz jadal sur`atlarda o`shib bormoqda, bunga misol qiladigan bo`lsak 2015-yil yakunlarida jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hamon davom etayotganiga qaramasdan, hisobot yilida yalpi ichki mahsulot 8 foiz, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8 foiz, qishloq xo`jaligi mahsulotlari qariyb 7 foiz, qurilish-montaj ishlari hajmi salkam 18 foizga oshdi.

Yillik byudjet yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,1 foiz profitsit bilan bajarildi. Inflatsiya darajasi 5,6 foizni tashkil qildi, ya`ni prognoz ko`rsatkichlari doirasida bo`ldi.¹

Shuni alohida ta`kidlash kerakki, o`tgan yilda erishilgan ana shunday o`shish sur`atlari va yuksak makroiqtisodiy ko`rsatkichlar jamiyatimizning barcha sohalarini tubdan isloh qilish va yangilash bo`yicha amalga oshirilgan ko`p yillik

¹ Prezident Islom Abdug`anievich Karimovning 2015- yil yakunlari va 2016 yilda O`zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasi // Xalq so`zi, 2015- yil 20 yanvar .

mashaqqatli va murakkab ishlarning mantiqiy natijasi, mamlakatimiz iqtisodiyotini izchil va barqaror rivojlantirishning amaliy namoyoni bo'ldi.

Prezidentimiz I.A.Karimov “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari” nomli asarlarida “Uchinchidan–qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan korxonalarining raqobatdoshligini oshirish”² masalasiga alohida to'xtalib o'tilgan.

Shu manoda inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirilishi doirasida korxonalarda tannarxni pasaytirishning asosiy yo'nalishlari ishlab chiqilib, bu borada ma'lum bir ijobiy natijalarga erishildi. Buning natijasida iqtisodiyotimizning o'sish sur'atlari ta'minlandi. Bu haqda Prezidentimiz shunday ta'kidlaydilar:

“Dastur o'ziga qamrab olgan, o'z vaqtida qabul qilingan hujjatlarda, avvalo, mamlakatimiz moliyaviy-iqtisodiy, byudjet, bank-kredit tizimining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalariga yordam ko'rsatish, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarning puxta ishlab chiqilgani o'zining amaliy samarasini berdi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.”³

Har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt o'z faoliyat yo'nalishi bo'yicha tannarxni pasaytirish omillari to'g'risida keng va chuqur tasavvurga ega bo'lishi lozim. Umumiy holda, mamlakatimiz korxonalarida tannarxni pasaytirishning asosiy yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. Shu sababli, ushbu mavzu bitiruv-malakaviy ishining izlanish ob'yekti sifatida tanlab olindi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatdagi moderinizatsiyalash sharoitida korxonalarda tannarxni kamaytirishning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha fikr-mulohazalar, g'oyalar va ilmiy-amaliy

²I.A.Karimov. “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari” //Toshkent, 2009 yil.

³ I.A.Karimov. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. «Xalq so'zi» gazetasi 2010 yil 30 yanvar, № 21(4936).

tavsiyalar Prezidentimiz I.A.Karimovning ma`ruzalari va asarlarida o`z aksini topgan. Bundan tashqari, ushbu dolzarb masalani yechishda olimlarimizdan Sharifxo`jaev M., Abdullaev Y.A., Abdullayev A. G`ulomov S.S., Qosimov F., Xodiev B.Y., Ishmuhamedov A.E., Jo`raev A.S., Maxmudov E.X., va boshqalar o`z ilmiy-tadqiqotlarida yoritib berganlar. Xorijiy olimlardan Boddi.D, Gerchikova V., Gilberk F., Meskon M., Teylor F., Fayol A., Ford G., Emerson X., kabi tadqiqotchi olimlarni ham alohida ta`kidlash mumkin.

Mazkur olimlarning tadqiqotlarida mahsulot tannarxini kamaytirish bo`yicha umumiy ma`lumotlariga ko`ra korxonalarda mahsulot tannarxini pasaytirishning asosiy yo`nalishlarini yoritishga qaratildi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalarda mahsulot tannarxini kamaytirishning asosiy yo`nalishlarini ishlab chiqish bo`yicha ilmiy asoslangan takliflar tuzishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun bitiruv malakaviy ishida quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Mahsulot tannarxi tushunchasi, uning manbalari va omillarining nazariy asoslarini chuqur o`rganish;

-“Andijon-Paxta” OAJ ning asosiy iqtisodiy ko`rsatkichlarini tahlil qilish;

-“Andijon-Paxta” OAJda mahsulot tannarxi va unga ta`sir etuvchi omillarni tahlil qilish;

-Korxonalarini modernizatsiyalash orqali korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish yo`nalishlarini ishlab chiqish va takliflar berish;

- Korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish yo`llari bo`yicha amaliy tavsiyalar tayyorlash va hokazo.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari, tannarxini kamaytirishning yo`llari, manbalari va omillari hamda tannarxni pasaytirishning asosiy yo`nalishlari bitiruv malakaviy ishining predmetini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining ob`ekti. Andijon viloyatidagi “Andijon-Paxta” OAJ bitiruv malakaviy ishining ob`ektini tashkil qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari. Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari qilib Prezidentimiz I.A.Karimovning ma`ruza va asarlarida bayon etilgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni amalga oshirish bo'yicha ilgari surilgan fikr-mulohazalar va asosiy yo'nalishlar, O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, iqtisodchi olimlarning ushbu yo'nalishda amalga oshirgan ilmiy ishlari, xo'jalik yurituvchi sub`ektlarda erishilgan ilg'or tajribalar olindi.

Bitiruv malakaviy ishining yangiligi. Bitiruv malakaviy ishining yangiligini belgilovchi jihatlar quyidagilardir:

- ishlab chiqarish xarajatlari, mahsulot tannarxi tushunchasi, tannarxni kamaytirish omillari va manbalari kengaytirilgan holda talqin qilingan;

- "Andijon-Paxta" OAJ faoliyati samaradorligi kompleks baholangan va uning ishlab chiqargan mahsuloti tannarxini tahlil qilishning uslubiy asoslari yaratilgan;

- Korxonalarini modernizatsiyalash orqali korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish yo'nalishlari ishlab chiqilgan;

- Korxonalarida mahsulot tannarxini shakllantirish va uni kamaytirishning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish bo'yicha amaliy tavsiyalar va ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining hajmi va tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

I BOB. KORXONALARDA MAHSULOT ISHLAB CHIQUARISH TANNARXINI SHAKLLANISHINING NAZARIY TAVSIFI.

1.1 Mahsulot tannarxi tushunchasi, uning mohiyati, ahamiyati va turlari

Iqtisodiyot nazariyasida qiymat va tannarx masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, qiymat tushunchasi borasida bir qator munozarali fikrlar mavjud. Ayrim iqtisodchi olimlar tovarning qiymatini uning natijaliligi bilan bog'lasalar, ayrimlari tovar qiymati – tovar ishlab chiqaruvchilarning tovarda gavdalangan va unda moddiylashgan ijtimoiy mehnati, deb hisoblaydilar. Boshqalari esa tovarning qiymatini ushbu tovarga bo'lgan talab va taklif, ya'ni tovarning noyobligi belgilaydi, deb hisoblaydilar.

Umuman olganda, tovarning qiymati uning boshqa tovarga ayirboshlana olish darajasini aniqlash uchun zarurdir. Narx (baho) va qiymat tushunchalari orasida deyarli farq yo'q. Faqatgina narx (baho) – bu tovar qiymatining puldagi ifodasidir xolos.

Iqtisodiyotda mahsulot ishlab chiqarish tannarxi kategoriyasidan ham keng foydalaniladi. Qiymat va ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi tafovut ishlab chiqarish sub`ektining daromadi yoki foydasi hisoblanadi.

Soliq kodeksining 22-moddasida mahsulot tannarxiga quyidagicha ta'rif berilgan: “Tannarx - mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatishda foydalaniladigan moddiy resurslarning, asosiy fondlarning, mehnat resurslarining, shuningdek, tovar ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa turdagi xarajatlarning qiymat bahosidir.”⁴

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi – mahsulotni ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan, ya'ni ishlab chiqarish texnologiyasi bilan boqliq bo'lgan xarajatlarning puldagi ifodasidir.

Sanoat oldida turgan asosiy vazifalardan biri – bu mahsulot ishlab chiqarish tannarxini pasaytirishdir. Bu vazifaning bajarilishi natijasida ishlab chiqarishni

⁴ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 22-moddasi. Toshkent-2015.

rivojlantirishga va aholining turmush darajasini oshirishga imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha resurslardan bekami-ko'st foydalanish bu ko'rsatkichlarning rolini oshirish zaruriyatini taqozo etadi. Shu sababli tannarx atamasining mohiyati, ahamiyati, mazmuni va shakllarini yaxshi bilish hamda uni pasaytirish masalasiga katta e'tibor berish kerak bo'ladi.

Biron-bir mahsulot ishlab chiqarish uchun ma'lum miqdorda xomashyo va materiallar, mehnat va boshqa ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan yuklama xarajatlar sarflanadi. Mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan xarajatlarning puldagi ifodasi mahsulot ishlab chiqarish tannarxi deb ataladi.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi ko'rsatkichi ishlab chiqarishni rivojlantirishda va uni tashkil etishda muhim rol o'ynaydi.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish ishlab chiqarish rentabelligini oshirish, ya'ni foydani ko'paytirishning, mavjud resurslar bilan ishlab chiqarish hajmini o'stirishning muhim omili hisoblanadi. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi ko'rsatkichi ishlab chiqarish sifat ko'rsatkichlari orasida alohida o'rin tutadi.

Ishlab chiqarishni va mehnatni tashkil etish, texnika va materiallardan foydalanish, moddiy-texnika ta'minotini takomillashtirish, mahsulot sifatini yaxshilash borasidagi hamma o'zgarishlar xarajatlar darajasida aks etadi. Shu sababli ham biz mahsulot tannarxi ishlab chiqarish samaradorligining sifat ko'rsatkichlari tizimida muhim o'rin egallaydi, deya olamiz. Binobarin, shuning uchun ham mahsulot ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlarni ularning iqtisodiy mazmuniga ko'ra guruhlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahsulot tannarxi deb biron bir mahsulotni ishlab chiqarish uchun qilingan harajatlarni puldagi ifodasiga aytiladi.

Tannarx asosan ish haqi fondi, amortizatsiya ajratmalari, materiallar va hom ashyolardan tashkil topib, ularni salmog'i turli xil sohalarda turlicha bo'ladi.

Mahsulotni faqatgina ishlab chiqarish uchun sarflangan harajatlarni ishlab chiqarish tannarxini bildirsa, unga ustama xarajatlar qo'shib hisoblansa, to'la tannarx aniqlanadi.

Tannarxni taxlil qilishning asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar bo'lib hisoblanadi:


1. Mahsulot tannarxi rejasini asosli ekanligiga baho berish.
2. Tannarxni umumlashtiruvchi ko'rsatkichlari bo'yicha reja bajarilishiga baho berish.
3. Tannarxni o'sishi yoki pasayishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash.
4. Mahsulot tannarxini pasaytirishni ichki imkoniyatlarini topish va ulardan foydalanishni asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqarish.

Mahsulot tannarxini tahlil qilishni asosiy maqsadi material, mehnat va pul zaxiralaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini ochib berish va ishga solishdir. Mahsulot tannarxini o'rganish korxonada foydasi va rentabellik darajasiga yanada ob'ektiv baho berishimizga yordam beradi.

Materiallardan foydalanishning umumlashtiruvchi ko'rsatkichlaridan biri bo'lib material sigimi hisoblanadi. Bu sarflangan material qiymatini tovar mahsuloti qiymatiga nisbati bilan yoki bunga teskari bo'lgan ko'rsatkich, mahsulot summasini bir so'miga sarflangan material qiymatiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi va bu material qaytimi deb ataladi.

Har bir so'mlik tovar mahsulot hisobiga to'g'ri keladigan haqiqiy materiallar sarfining rejadagi bilan taqqoslab tahlil qilish bizga rejaga nisbatan material sarfini ko'payib yoki kamayib ketganligini ko'rsatdi.

Moliyaviy natijalar-korxonada ishining foyda summasi va rentabellik darajasida tavsiflanuvchi yakunidir. Korxonaning moliyaviy xisobotida moliyaviy natijalar 2-shakl "Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot" asosida aniqlanadi va tahlil qilinadi.



1) Mahsulot sotishdan yalpi foyda (YaF) korxonaning mahsulotni sotishdan olgan daromadini tavsiflaydi va mahsulot sotishdan tushgan sof tushum va sotilgan tannarxi urtasidagi farq sifatida quyidagi shakl bo'yicha aniqlanadi:

$$YaF = ST - MT$$

Mahsulot sotishdan sof tushum (ST) - mahsulotni sotishdan qo'shilgan kiymat soligi va aktsiz soligi chiqarilgandan keyingi sof tushum summasidir. Bu ko'rsatkich korxonadan mahsulotni sotishdan ko'rgan foydasidir.

Sotilgan mahsulot tannarxi (MT) - korxonadan mahsulotni chiqarishga qilgan harajatlari bo'lib, u ishlab chiqarish maqsadidagi bevosita va bilvosita, moddiy va mehnat sarflarini o'z ichiga oladi. Savdo tashkilotlari bunga sotilgan tovarlarning harid kiymatini qushadilar.

2) Asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda (As.f.f.) - korxonadan asosiy faoliyatidan (ishlab chiqarish korxonalarida - mahsulotni chiqarish va sotish, savdoda - mahsulot sotish, ko'rilishda - tugallangan ko'rilish ishlari va shu kabilar) olgan foydasini tavsiflaydi.

Bu foydani aniqlash uchun yalpi foydadan davr harajatlari (D_{xar}) va boshqa harajatlar (B_{xar}) chegirishi va asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar (B_{dar}) quyidagicha formula bo'yicha qo'shilishi kerak.

$$As.f.f. + YaF - D_{xar} + B_{dar} - B_{xar}$$

3) Umum xo'jalik jarayonidan olingan foyda (Umum.f.f.) - asosiy faoliyatdan foyda plus moliyaviy natijalarini tavsiflovchi moliyaviy natijalar. Moliyaviy faoliyat natijalariga: dividendlar, olingan va to'langan foizlar, kurs va valyutadagi farqlar kiritilib, u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Umum\ f.f. + As.f.f. + Mol.f.f.$$

4) Soliqni to'lashdan oldingi foyda S.t.ol.f. - favkulotda foyda va zararlarni hisobga olib, quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$S.t.ol.f. + Umum\ f.f. + Ff - Fz$$

5) Sof foyda (SF) - soliqlar to'langandan so'ng korxonada tasarrufida qoladigan foyda summasi bo'lib, u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Sf = S.t.ol.f. - Foyda\ solig'i - boshqa\ soliqlar$$

Korxonada moliyaviy holatini tahlil qilishda rioya qilinishi lozim bo'lgan bir kator umumiy jixatlar bor.

Moliyaviy holat, uning tarkibi va mazmuni tahlili natijalari bo'yicha xulosa quyidagi shartlarga bo'liq bo'ladi:

- tahlil maqsadi;
- tahlilchining tayyorgarlik darajasi;
- korxonaning moliyaviy axvoli;
- tahlil vaqti va ob'ekti;
- uning tarmoq faoliyati va boshqalar.

Barcha ko'rsatkichlar bilan qilingan hisob-kitoblar asosida korxonaning to'lovga layoqatliligi va uning bir yilidagi o'zgarishlari to'g'risida umumlashgan xulosa chiqariladi.

To'lovga layoqatlik moliyaviy axvol bilan bog'langandan so'ng moliyaviy barqarorlik tahlilini umumlashtirishga o'tiladi.

To'lovga layoqatlik va moliyaviy barqarorlik holati korxonada ishining moliyaviy natijalariga ta'sir qiladi. Shuning uchun to'lovga layoqatlik va

moliyaviy barqarorlikni moliyaviy natijalar bilan bog'lab, ularning o'zgarishlariga ta'rif beriladi.

Moliyaviy natijalar ko'p jixatdan asosiy va aylanma mablag'lar holati hamda foydalanish samaradorligiga, debitorlik va kreditorlik qarzlariga, ishlab chiqarish dasturining bajarilishiga, ya'ni ish faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun asosiy va aylanma mablag'lar holati va ulardan foydalanish samaradorligiga, debitorlik va kreditorlik qarzlariga tavsif berish, bunda muddati o'tgan qarzlar va ularning paydo bo'lish sabablariga to'xtalib o'tish kerak bo'ladi.

1.2. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlarning guruhlanishi.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini aniqlash va uni hosil qiluvchi xarajatlarni turkumlash mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999- yil 5- fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar

Ishlab chiqarishning moddiy xarajatlari

Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari

Ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar

Asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi

Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar

I. Ishlab chiqarish bilan bog'liq moddiy xarajatlar.

Ishlab chiqarish bilan bog'liq moddiy xarajatlarga quyidagilar tegishli bo'ladi:

1. Ishlab chiqariladigan mahsulot asosini tashkil etib uning tarkibiga kiradigan yoki mahsulot tayyorlashda (ishlarni bajarishda, xizmatlar ko'rsatishda) zarur tarkibiy qism hisodlangan chetdan sotib olinadigan xomashyo va materiallar.

2. Normal texnologiya jarayonini ta'minlash va mahsulotlarni o'rash uchun mahsulot (ishlar, xizmatlar) yoki boshqa ishlab chiqarish ehtiujlariga sarflanadigan (asbob-uskunalar, binolar, inshootlar va boshqa asosiy vositalar sinovini o'tkazish, nazorat qilish, saqlash, tuzatish va ulardan foydalanish) uchun ishlab chiqarish jarayonida foydalanadigan, xarid qilinadigan materiallar, shuningdek, asbob-uskunalarni tuzatish uchun ehtiyot qismlar, instrumentlar, moslamalar, inventar,

priborlar laboratoriya asbob-uskunalari va asosiy fondlarga kirmaydigan boshqa arzonbaho ashyolarning eskirishi.

3. Sotib olinadigan, kelgusida ushbu xo'jalik yurituvchi sub`ektda montaj qilinadigan yoki qo'shimcha ishlov beriladigan butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar.

4. Tashqi yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, xo'jalik yurituvchi sub`ektning ichki tarkibiy bo'linmalari tomonidan bajariladigan faoliyatning asosiy turiga tegishli bo'lmagan, lekin ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ishlar va xizmatlar.

Ishlab chiqarish xarakteriga ega bo'lgan ishlar va xizmatlarga mahsulot tayyorlash bo'yicha ayrim operatsiyalarni bajarish, xomashyo va materiallarga ishlov berish, iste'mol qilinayotgan ashyo va materiallar sifatini aniqlash uchun sinovlar o'tkazish, belgilangan texnologik jarayonlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish, asosiy ishlab chiqarish fondlarini tuzatish va boshqalar tegishli bo'ladi.

Xo'jalik yurituvchi sub`ekt ichida tashqi yuridik shaxslarning transport xizmatlari (xomashyo, materiallar, detallar, instrumentlar, inventarlar, yuklarning boshqa turlarini bazis (markaziy) ombordan tsexga keltirish va tayyor mahsulotni saqlash uchun omborga keltirish) ham ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan xizmatlarga tegishli bo'ladi.

5. Tabiiy xomashyo (er rekultivatsiyasiga ajratmalar, ixtisoslashtirilgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan yerni rekultivatsiya qilish ishlariga haq to'lash), ildizi bilan beriladigan daraxtga haq to'lash, sanoat korxonalarini tomonidan suv xo'jaligi tizimidan belgilangan limitlar doirasida va undan ortiqcha olinadigan suv uchun haq to'lash. Sanoatning xomashyo tarmoqlari uchun – yog'och-taxta materiallardan yoki foydali qazilmalardan (rudadan) foydalanishga huquqlarning amortizatsiya qilinadigan qiymati yoki atrof-muhitni tiklash xarajatlari.

6. Texnologik maqsadlarga, energiyaning barcha turlarini ishlab chiqarishga, binolarni isitishga sarflanadigan Yonilg'ining chetdan sotib olinadigan barcha turlari, xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning transporti tomonidan bajariladigan ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bo'yicha transport ishlari.

7. Xo'jalik yurituvchi sub`ektning texnologik, transport va boshqa ishlab chiqarish hamda xo'jalik ehtiyojlariga sarflanadigan barcha turdagi xarid qilinadigan energiya. (Xo'jalik yurituvchi sub`ektning o'zi tomonidan ishlab chiqariladigan elektr energiyasi va energiyaning boshqa turlariga, shuningdek, xarid qilinadigan energiyani iste'mol joyigacha transformatsiya qilish va uzatish xarajatlari xarajatlarning tegishli elementlariga kiritiladi).

8. Ishlab chiqarish sohasida moddiy boyliklarning tabiiy yo'qolish normalari doirasida va ulardan ortiqcha yo'qotilishi, yaroqsizlanishi va kam chiqishi.

9. Xo'jalik yurituvchi sub`ektning transporti va xodimlari tomonidan moddiy resurslarni yetkazish bilan bog'liq xarajatlar (yuklash va tushirish ishlari ham shu jumlagacha kiradi) ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli elementlariga kirishi kerak (mehnatga haq to'lash xarajatlari, asosiy fondlar amortizatsiyasi, moddiy xarajatlar va boshqalar).

10. Xo'jalik yurituvchi sub`ektlar tomonidan moddiy resurslarni yetkazib beruvchilardan olinadigan idishlar ham moddiy resurslar qiymatiga kiritiladi.

11. Mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy resurslar xarajatlaridan qaytariladigan chiqitlar qiymati, idish va o'rash-joylash materiallari qiymati ularning amalda sotilishi, foydalanishi yoki omborga kirim qilinishi narxi bo'yicha chiqarib tashlanadi.

12. «Moddiy xarajatlar» elementi bo'yicha aks ettiriladigan moddiy resurslar qiymati sotib olish narxidan, jumladan, barter bitishuvlarida, qo'shimcha narx (ustama)dan, ta'minot, tashqi iqtisodiy tashkilotlar tomonidan to'lanadigan vositachilik taqdirlashlaridan, tovar birjalari xizmatlari qiymatidan, xususan, brokerlik xizmatlaridan, bojlar va yig'imlardan, transportda tashishga haq

to'lashdan, tashqi yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan saqlash va yetkazib berishga haq to'lashdan kelib chiqib shakllanadi.

II. Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari.

Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari tarkibiga quyidagi moddalar kiritiladi:

1. Xo'jalik yurituvchi sub`ektda qabul qilingan mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlariga muvofiq bajariladigan narxnomalar, tarif stavkalari va lavozim maoshlaridan kelib chiqib hisoblangan amalda bajariladigan ish uchun ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ish haqi, shu jumladan, bajarilgan ishni hisobga olish bo'yicha dastlabki hujjatlarda nazarda tutilgan rag'batlantiruvchi tusdagi to'lovlar.

2. Kasb mahorati va murabbiylik uchun tarif stavkalari va okladlarga ustamalar.

3. Ish rejimi va mehnat sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan kompensatsiya tusidagi to'lovlar, shu jumladan:

- texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtda, ishdan tashqari, vaqtda, dam olish va bayram (ishlanmaydigan) kunlarda ishlaganlik uchun tarif stavkalari va okladlarga ustamalar va qo'shimcha haq;

- ko'p smenali rejimda ishlaganlik, kasblarni birga qo'shib olib borganlik va xizmat ko'rsatish zonalarini kengaytirganlik uchun ustamalar;

- hukumat tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro'yxati bo'yicha og'ir, zararli, alohida zararli mehnat va tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, xususan, ushbu sharoitlardagi uzluksiz ish staji uchun ustamalar;

- aloqa, temir yo'l, daryo, avtomobil transporti va katta yo'llar xodimlari doimiy ishi yo'lda o'tadigan yoki qatnov tusiga ega bo'lgan boshqa xodimlarning ish haqiga, xo'jalik yurituvchi sub`ekt joylashgan joydan jo'nagan paytidan boshlab shu joyga qaytib kelgan paytigacha to'lanadigan yo'lda o'tgan har bir sutka uchun to'lanadigan ustamalar;

- qurilishda, rekonstruktsiya qilishda va mukammal ta'mirlashda bevosita band bo'lgan, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan xollarda vaxta usuli bilan ishlarni bajargan xodimlarga ishning ko'chma va qatnov xususiyati uchun ustama;

- doimiy ravishda yer osti ishlarida band bo'lgan xodimlarga ularning shaxtada (konda) ish joyiga jo'nab ketishlaridan va orqaga qaytishlarigacha o'tadigan normativ vaqt uchun qo'shimcha haq;

- mehnatga haq to'lashning rayonlar bo'yicha tartibga solinishiga, shu jumladan, rayon koeffitsientlari va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq cho'l, suvsiz va yuqori tog' joylarida ishlaganlik uchun koeffitsientlar bilan belgilangan to'lovlar;

- xo'jalik yurituvchi sub'ekt joylashgan joydan (yig'ilish punktidan) ish joyiga va orqaga qaytadigan yo'lda o'tadigan kunlar uchun vaxtada ishlash jadvalida nazarda tutilgan, shuningdek, xodimlarning meteorologiya sharoitlariga ko'ra va transport tashkilotlari aybi bilan yo'lda tutilib qolingun kunlar uchun tarif stavkasi.

4. Ish vaqti usulida tashkil etilganda, ish vaqti jamlanib hisoblanganda va qonun hujjatlari bilan belgilangan boshqa hollarda xodimlarga ularga ish vaqtining normal davom etishidan ortiq ishlaganligi munosabati bilan beriladigan dam olish (ortiqcha ishlagan ish vaqti uchun dam olish) kunlari uchun haq to'lash.

5. Ishlamagan vaqt uchun haq to'lash:

- amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq navbatdagi (har yilgi) va qo'shimcha ta'tillar, navbatdagi (har yilgi) foydalanilmagan va qo'shimcha ta'tillar uchun kompensatsiyalar, o'smirlarning imtiyozli soatlari, bolani ovqatlantirish uchun onalar ishidagi tanaffuslar, shuningdek, tibbiy ko'rikdan o'tish bilan bog'liq vaqt uchun haq to'lash;

- majburiy ta'tilda bo'lgan xodimlarga asosiy ish haqini qisman saqlab qolgan holda haq to'lash;

- donor xodimlarga qonini tekshirish, topshirish kunlari uchun va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun haq to'lash;

- davlat vazifalarini bajarganlik uchun (harbiy yig'inlar, favqulodda vaziyatlar bo'yicha yig'inlar va boshqalar) mehnat haqi to'lash.

6. Xo'jalik yurituvchi sub`ekt shtatida turmaydigan xodimlar mehnatiga ular tomonidan fuqarolik-huquqiy tUSDagi tuzilgan shartnomalar bo'yicha ishlar bajarilganligi uchun haq to'lash, agar bajarilgan ish uchun xodimlar bilan hisob-kitob xo'jalik yurituvchi sub`ekt tomonidan amalga oshirilsa, pudrat shartnomasi ham shu jumlagA kiradi.

7. Belgilangan tartibga muvofiq ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi xodimlar mehnatiga haq to'lash fondiga kiritiladigan to'lovlarning boshqa turlari.

III. Ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar.

Ijtimoiy sug'urtaga ajratmalarga quyidagilar kiradi:

1. Qonun hujjatlari bilan belgilangan normalar bo'yicha mehnatga haq to'lash fondiga ijtimoiy tUSDagi majburiy ajratmalar.

2. Nodavlat pensiya jamg'armalariga, ixtiyoriy tibbiy sug'urtaga va ixtiyoriy sug'urtaning boshqa turlariga ajratmalar.

IV. Asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi.

Asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi bo'yicha xarajatlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

1. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining dastlabki (tiklash) qiymatidan kelib chiqib hisoblangan amortizatsiya ajratmalari so'mmasi (hisoblangan eskirish), lizing bo'yicha va belgilangan tartibda tasdiqlangan normalar, qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan jadallashtirilgan amortizatsiya ham shu jumlagA kiradi.

2. Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar eskirishi har oyda xo'jalik yurituvchi sub`ekt tomonidan dastlabki qiymati va ulardan foydali

foydalanish muddatidan (biroq xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyati muddatidan ortiq emas) kelib chiqib hisoblanadigan mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga tegishli bo'ladi. Foydali foydalanish muddatini aniqlash imkoni bo'lmagan nomoddiy aktivlar bo'yicha eskirish normasi besh yil hisobiga belgilanadi, biroq xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyati muddatidan ortiq emas.

V. Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar.

Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlarni hisobga olishning navbatdagi kompleks moddolari I, II, III, IV – bandlarda keltirilgan xarajatlar elementlari bo'yicha ajratiladi.

1. Ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish xarajatlari:

- ishlab chiqarishni xomashyo, materiallar, Yonilg'i, energiya, instrument, moslamalar va boshqa mehnat vositalari va buyumlari bilan ta'minlash xarajatlari;

- asosiy ishlab chiqarish fondlarini ish holatida saqlash xarajatlari (texnik ko'rik va qarov, joriy va mukammal tuzatish xarajatlari). Asosiy ishlab chiqarish vositalarini barcha turda (joriy, o'rtacha, mukammal) tuzatishlarni xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'z kuchi bilan o'tkazish ishlab chiqarish xarajatlarning tegishli elementlari (moddiy xarajatlar, mehnat haqi to'lash xarajatlari va boshqalar) bo'yicha mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladi.

Zarurat bo'lganda ayrim tarmoqlarning xo'jalik yurituvchi sub'ektlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining ruxsati bilan mukammal tuzatish ishlarini o'tkazish uchun mablag'lar zahirasini tashkil qilishlari mumkin. Ushbu zahiraga ajratmalar «Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar» elementi tarkibida aks ettiriladi va ko'zda tutilayotgan xarajatlar qiymati hamda asosiy vositalar har bir ob'ektini mukammal tuzatishlarning davriyligidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Zahiraga ajratmalar nrmasi har bir hisobot yili oxirida qayta ko'rib chiqiladi va zarur bo'lganda yangi moliya yili uchun ajratmalar miqdori ko'paytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Agar mukammal tuzatishga zahira mablag'lari so'mmasi ushbu ob'ektni tuzatishga qilingan haqiqiy xarajatlar so'mmasidan oshib ketsa, oshib ketgan so'mma bo'yicha tuzatish kiritilishi kerak:

agar haqiqiy xarajatlar zahiradagidan oshib ketsa, u holda oshib ketgan so'mma «Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar» elementi tarkibida aks ettiriladi.

- yong'indan saqlash va qo'riqlashni hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni texnikaviy foydalanish qoidalari bilan nazarda tutilgan boshqa maxsus talablar bilan ta'minlash, ular faoliyatini nazorat qilish xarajatlari.

Idoradan tashqari, qo'riqlash xarajatlari bunday qo'riqlash mavjud bo'lishini talab qiluvchi mazkur ishlab chiqarishga maxsus talablar mavjud bo'lgan taqdirda mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritilishi mumkin.

- ishlab chiqarish faoliyatiga tegishli bo'lgan asosiy vositalarni joriy ijaraga olish bilan bog'liq xarajatlar;

- tabiatni muhofaza qilish maqsadlaridagi fondlarni saqlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq joriy xarajatlar, jumladan, ifloslantiruvchi moddalarni yo'l qo'yiladigan normalar doirasida va undan ortiqcha atrof-muhitga chiqarganlik uchun to'lovlar;

- ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan mehnatning normal sharoitlari va texnika xavfsizligini ta'minlash xarajatlari;

- xodimlarning ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashishi bilan bog'liq bo'lgan sog'liqni muhofaza qilish tadbirlari;

- amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tyokin beriladigan va shaxsiy foydalanishda qoladigan buyumlar qiymati (shu jumladan, formal kiyim-bosh, maxsus ovqatlar, yoki ular pasaytirilgan narxlar bo'yicha sotilishi munosabati bilan imtiyozlar summasi);

- ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lgan boshqaruvning texnik vositalarini, aloqa uzellarini, signalizatsiya vositalarini, boshqaruvning boshqa texnik vositalarini, hisoblash markazlarini saqlash va ularga xizmat ko'rsatish xarajatlari;

- qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazganlik uchun tibbiy muassasalarga haq to'lash.

2. Ishlab chiqarish xodimlarini belgilangan ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lgan xizmat safarlariga yuborish bo'yicha normalar doirasida va ulardan ortiqcha xarajatlar.

3. Ishlab chiqarish ishchilarini va ishlab chiqarish aktivlarini majburiy sug'urta qilish xarajatlari.

Brak tufayli kelib chiqadigan yo'qotishlar.

5. Ishlab chiqarishning ichki sabablariga ko'ra bekor turishlar tufayli yo'qotishlar.

6. Kafolatli xizmat muddati belgilangan buyumlarni kafolatli tuzatish va ularga kafolatli xizmat ko'rsatish xarajatlari.

7. Mahsulot (xizmatlar)ni majburiy sertifikatlash qilish xarajatlari.

8. Ishlab chiqarish jarohatlari tufayli mehnat qobiliyati yo'qolishi munosabati bilan tegishli vakolatli organlarning qarorlari asosida va qarorlarisiz to'lanadigan nafaqalar.

9. Umumiy foydalaniladigan yo'lovchilar transporti xizmat ko'rsatmaydigan yo'nalishlarda xodimlarni ish joyiga olib borish va olib kelish bilan bog'liq xarajatlar.

Mahsulot tannarxi nazariyasida mahsulot tannarxi strukturasi degan muhim tushuncha mavjud. U ayrim xarajatlarning mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan jami xarajatlar so'zmasidagi nisbatini ko'rsatadi. Odatda, struktura foiz hisobida o'lchanadi.

Tannarx strukturasi tarmoqlar va korxonalarining xususiyatiga, ishlab chiqarish texnologiyasi va ishlab chiqarishning tashkil qilinishiga bog'liqdir.

Mahsulot tannarxining strukturasi o'zgarmas miqdor hisoblanmaydi. Sanoatning o'sishi, texnika va ishlab chiqarish texnologiyasi takomillashishi, asosiy va aylanma fondlardan foydalanishning yaxshilanishi, ish haqi miqdorining o'zgarishi, iste'mol buyumlari baholarining tartibga tushishi va transport tariflarining o'zgarishi bilan mahsulot tannarxi strukturasi ham o'zgaradi.

Mahsulot tannarxida qaysi guruhdagi xarajatlar asosiy o'rin tutishiga qarab, sanoat tarmoqlari bir-biridan farq qiladi – ko'p mehnat, ko'p material, ko'p energiya, ko'p mablag' talab qiladigan bo'ladi.

Ish haqi uchun qilinadigan xarajatlar (mehnat xarajatlari) salmog'i eng katta bo'lgan ishlab chiqarish tarmog'i ko'p mehnat talab qiladigan tarmoq hisoblanadi (ko'mir sanoati, yog'och tayyorlash sanoati va boshqalar).

Xomashyo va materiallarga qilinadigan xarajatlar salmog'i eng katta bo'lgan ishlab chiqarish tarmog'i ko'p material talab qiladigan tarmoq hisoblanadi (engil sanoat va oziq-ovqat sanoati, mashinasozlik).

Xarajatlarning ko'p qismi asosiy vositalar amortizatsiyasi uchun sarflanadigan tarmoqlar ko'p mablag'lar talab qiladigan tarmoqlarga kiradi (masalan, neft va gaz qazib chiqarish, gidroelektrostantsiyalarda elektr energiyasi ishlab chiqarish).

Ishlab chiqarishning tarmoq xususiyatlarini hisobga olish, tannarx strukturasi va ishlab chiqarish xarajatlarini iqtisodiy tahlil qilish ishlab chiqarishda yuz beradigan asosiy texnik-iqtisodiy jarayonlarni o'rganish, ishlab chiqarishdagi chiqimlarni kamaytirishning asosiy yo'llarini belgilashga imkon beradi.

II BOB. «ANDIJON-PAXTA» OAJDA MAXSULOT ISHLAB CHIQUYRISH TANNARXI, XARAJATLARLARINING XOLATI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAXLILI.

2.1 “Andijon-Paxta” ochiq aksiyadorlik jamiyatining tashkiliy huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasi sanoatida ko'plab yirik korxonalar ishlayotgan. Bunday korxonalardan biri Andijon viloyati Ohunboboyev tumanidagi «Andijon-Paxta» ochiq aksiyadorlik jamiyatidir. Korxonaga nazar tashlasak, korxonaga 1995-yili «Andijon-Paxta» ochiq aksiyadorlik jamiyati nomi bilan ishga tushgan.


Bu zavod 1904-1905 -yillarda Andijon shahrida Rossiya-Xitoy banki tomonidan qurilib ishga tushirilgan. Korxonada Oltinko'I tumanida joylashgan. "Andijon-3" paxta tozalash zavodi shahar markazida joylashgan bo'lib, paxta xom ashyosini qayta ishlash chog'ida atrof- muxitning ekologik sharoitiga salbiy ta'sir ko'rsatardi. Shu sababli shahar hududidan chiqarishga qaror qilindi. 1994- yili «O'z paxtasanoatsotish» uyushmasi raxbariyatining moliyaviy qo'llab- quvvatlashi natijasida Oltinko'I tumanida yangi zavod qurilishi boshlandi. Zavodga "Andijon-3" zavodining jixozlari ko'chirib o'rnatildi. Yangi zavod 1995-yil paxta xosilini qabul qilib to'liq quvvat bilan ishga tushirildi korxonada hududida tuksizlantirilgan urug'lik chigit tayyorlash uchun markazlashan sex qurilib ishga tushirildi. Qurilish montaj ishlari 6 oy davomida tugallanib, ushbu sexda sifatli urug'lik chigit tayyorlash uchun, zarur bo'lgan saralash, dorilash, qoplash, chigitni tayyorlash mashinalari Ispaniya davlatining "Yubus" kompaniyasidan keltirilib o'rnatilgan. Bundan tashqari, korxonada xizmat qilayotgan ishchi xizmatchialrni, doimiy ravishda issiq ovqat bilan ta'minlash, turmush farovonligini yaxshilash maqsadida 10 ming bosh parranda boqish tashkil etilgan hamda 1,7 ga bo'sh turgan ekin maydonlariga turli xil sabzavot, poliz, kartoshka maxsulotlari ekilib, dexqonchilik ishlari ham yo'lga qo'yilgan.

Korxonada 1995-yildan 10 turdan iborat turli xildagi paxta mahsulotlarini ishlab chiqarmoqda. Korxonada 514 kishidan iborat ishchi xodimlar faoliyat yuritmoqda.

"Andijon-paxta" OAJ 1995-yilda o'z ish faoliyatini boshlagan bo'lsa, boshqaruv raisi A.Mahmudov tayinlangan u bir necha yil o'z faoliyatini samarali olib borgan. "Andijon-paxta" OAJni umumiy yig'lish asosida boshqariladi. Umumiy kengash o'z navbatida 2 qismdan: kuzatuv kengashi va boshqaruv hay'atidan iborat. bundan tashqari OAJ da bosh hisobchi, huquqshunos, mutahassislar ham o'z faoliyatini olib boradi.

Davlat korxonasi bazasida tashkil etilgan jamiyat, tashkil etilgan kundan boshlab davlat korxonasida bor bo'lgan barcha mulk, pul mablag' va boshqa moliyaviy resurslarning, xamda karelnarning to'la vorisi bo'lib hisoblanadi. Nizom

fondining kapitalning birlamchi miqdori, Davlat mulk qo'mitasi davlat korxonasining barcha mulki natijalarini baxolashdan aniqlanadi. Nizom fondining miqdori 2014 - yil dekabr oyiga 775870 ming so'mni tashkil etdi, bu 77587 dona aksiyaga bo'lindi, shu jumladan(2.1.1 - chizma):



2015-yilda esa korxinalarda davlat ulushini bosqichma bosqich kamaytirish yo'lga qo'yilganligi sababli yana 15 foiz aksiyalar jamiyat azolari, rahbarlar va boshqa shaxslarga sotildi. Hozirga kelib "Andijon – Paxta" OAJ ning aksiyalari quyidagi diogrammada o'z ifodasini topgan:



Agar barcha avval chiqarilgan aksiyalar nominaldan kam bo'lmagan qiymatda to'laligicha to'langan bo'lsa, Jamiyat Nizom fondini oshirish xuquqiga ega. Nizom fondini oshirish aksiyalarning nominal qiymatini yoki qo'shimcha aksiyalar chiqarish yo'li bilan umumiy majlis qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Nizom fondini oshirish to'g'risidagi masala xal bo'lgandan keyin jamiyatning navbatdagi umumiy majlisni chaqirish to'g'risidagi aksiyadorlarga yuboriladigan xabarida quyidagilar amalga oshiriladi:

- Nizom fondining eng kam miqdorlarini oshirish sabablari va yo'llari
- Nizom fondini oshirish bilan bog'liq Jamiyat Nizomining loyixasi va emissiya prospektining yangi loyixasi
- qo'shimcha aksiyalar soni va umumiy qiymati haqida malumotlar yoki yangi aksiyalar qiymati haqida malumotlar
- qo'shimcha chiqarilgan aksiyalarga nisbatan aksiyadorlarning xuquqlari

- qo'shimcha chiqarilgan aksiyalarga yozilish muddatlari

Nizom fondining oshishi munosabati bilan qo'shimcha chiqarilgan aksiyalarga yozilish amaldagi qonunchilik asosida amalgam oshiriladi. Qo'shimcha chiqarilgan aksiyalarni sotib olish uchun Aksiyadorlar imtiyozli xuquqlardan foydalanadilar. Nizom fondini qo'shimcha aksiyalar chiqarish yo'li bilan oshirish to'g'risidagi qaror, davlatga tegishli aksiyalar paketi 25 foizdan ortiq bo'lganda faqat Davlat mulk qo'mitasi tomonidan qabul qilinadi.


Aksiyalar, yuridik shaxslar vorisligi qoidalari va boshqa asoslarga ko'ra meros yo'li bilan olinishi mumkin. Jamiyatning nizom fondini kamaytirish to'g'risidagi Qaror, amaldagi qonunchilikga binoan Nizom fondini kamaytirish to'g'risidagi tartibga muvofiq qabul qilinadi va rasmiylashtiriladi.

Nizom fondini kamaytirish, aksiyalarni hisobidan chiqarish maqsadida aksiya egalaridan bir qism aksiyalar qisqartirish uchun sotib olinadi. Qisqartirish maqsadida sotib olinadigan aksiyalar egalarini aniqlash tartibi, aksiyadorlar umumiy majlisi tomonidan belgilanadi. Nizom fondini kamaytirish to'g'risidagi qaror qabul qilinganidan boshlab jamiyat kechi bilan 30 kun ichida bu qaror xususida o'z kreditorlarini yozma ravishda xabardor qiladi. Kreditorlar xabarnoma yuborgan sanadan etiboran kechi bilan 30 kun ichida jamiyatdan o'z majburiyatlarini muddatidan oldin ijro etishni va Nizom fondi kamaytirilishi bilan bog'liq bo'lgan zararni to'lashni talab qilishga xaqli. Jamiyat keyinchalik qayta sotish, o'z xodimlari orasida tarqatish yoki bekor qilish maqsadida aksiyadorlardan ularga qarashli aksiyalarni sotib olishga xaqli. Ko'rsatib o'tilgan aksiyalar ko'pi bilan bir yil ichida realizasiya qilinishi lozim.

Jamiyatning zaxira va boshqa jamiyati faoliyati uchun zarur bo'lgan fondlari sof foyda hisobiga tashkil etilgan. Jamiyatning zarari, zaxira fondi hisobiga, agar bu mablag'lar yetarli bo'lmasa Jamiyatdagi boshqa mablag'lar hisobiga, bu xam

yetmasa aksiyadorlarning maqsadli badallari hisobiga qoplanadi. Jamiyatning zaxira fondi zararlarni qoplash, Jamiyat obligasiyalariga to'lash va amaldagi qonunchilikga asosan talab qilish xuquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning talabiga muvofiq aksiyalar sotib olishga mo'ljallangan. Zaxira fondi boshqa maqsadlarga foydalanilishi mumkin emas. Jamiyat, sof foydasining 5 foizdan kam bo'lmagan miqdorini har yili zaxira fondiga yo'naltiradi.

Jamiyatning zaxira fondlari butunlay yoki qisman ishlatib bo'lingan bo'lsa majburiy ajratmalar hisobiga tiklaniladi.



Aksiyalarni aksiyadorlar – mehnat jamoasi azolari va boshqa aksiyadorlar, shu jumladan imtiyoz beriladiganlari o'rtasida taqsimlash va joylashtirish tartibi, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, xamda aksiyadorlar umumiy majlisi tasdiqlaydigan jamiyat qimmatbaxo qog'ozlarini chiqarish,

ro'yxatdan o'tkazish, joylashtirish va hisob-kitobi tartibi haqidagi nizomga muvofiq belgilanadi. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan taqiqlanmagan aksiyalar, obligasiyalar va boshqa qimmatbaxo qog'ozlar, erkin muomiladagi aksiyalar chiqarish xuquqiga ega.

Jamiyat har birining nominal qiymati 10000 so'm bo'lgan quyidagi turdagi aksiyalar chiqarishni amalga oshiradi:

- egasi yozilgan oddiy aksiya 75260 ming so'mlik, soni 75260 dona,
- egasi yozilgan imtiyozli aksiya 2327 ming so'mlik, soni 2327 dona,

Jamiyatning xar bir qatnashchisi mehnatga qo'shgan hissa si va staj koeffisienti hisobga olib aksionerlar jamiyati aksiyalariga yozilganlaridan so'ng ushbu nizomdan kelib chiqadigan va bundan buyon "aksiyador" deyiladigan shaxsning xuquq va majburiyatlarini qo'lga kiritadi.

Aksiyaga yozilgandan so'ng, aksiya egasi berilgan imtiyozlarni inobatga olib aksiyalarning nominal qiymatidan 30 foizdan kam bo'lmagan qismini bir yo'la to'lash shart, qolgan qismi davlat mulk qo'mitasi buyrug'i va umumiy majlis belgilangan muddatlarda to'lanadi. To'lovlarni to'lamagan Aksiyador to'lov muddati o'tkazib yuborilgan so'mmasining yillik miqdori 25 foizi miqdorida jarima to'laydi, bunday xol agar umumiy majlis tomonidan ushbu aksiyalarni bekor qilish yoki ularni fond birjasi, fond do'konlari yoki qabul qilinmasagina ro'y beradi.

Aksiyadorlar aksiyalarni sotib olish uchun o'z badallarini quyidagi shaklda to'lashlari mumkin:

- pul mablag'lari so'mda va chet el valyutasida
- mulkning xar xil turlari
- qimmatbaxo qog'ozlar

Barcha badallar to'lab bo'lingandan va bu Jamiyat tomonidan tan olingandan so'ng, aksiyadorlarga aksiyalar beriladi.

Jamiyatning qimmatbaxo qog'ozlarni chiqarish, ro'yxatdan o'tkazish, joylashtirish va hisob-kitobi tartibi haqidagi Nizomga muvofiq imtiyozli aksiyalar joylashtiriladi va umumiy majlisning qaroriga asosan ular shu korxonadan pensiyaga chiqqan va ushbu korxonad 5 yildan kam ishlamaganlar xamda mehnat jamoasining boshqa toifadagi xodimlari-aksionerlari o'rtasida joylashtirilishi mumkin. Imtiyozli aksiyalarni sotish taqiqlanadi. Voris, imtiyozli aksiyalrni jamiyatga aksiyadorlar umumiy majlisi belgilangan nominal yoki boshqa qiymat bilan topshirish xuquqiga ega.

Imtiyozli aksiyalarning qiymatlari yig'indisi Nizom fondining 3 foizini tashkil etadi. Imtiyozli aksiyalar, Aksiya egasiga dvidentlar olishda va jamiyat tugatiladigan xolda uning mulkini bo'lishda ustunlik bilan qatnashishish xuquqini beradi.

50% aksiyadorlar ovozini taminlovchi biron bir emitentning 35% yoki undan ortiq aksiyasini malum shaxs yoki bir birining mulkini nazorat qiluvchi shaxslar to'plami tomonidan sotib olishi O'zbekiston Respublikasining antimonopol siyosatini olib boruvchi davlat organi ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Aksiyadorlik jamiyatini aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, kuzatuv kengashi va ijroiya organi boshqaradi. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi jamiyatni boshqarishni oliy organidir. Jamiyat har yili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishi shart. Aksiyadorlarning umumiy hisobot yig'ilishi moliya yili tugagandan keyin 6 oy ichida o'tkaziladi. Aksiyadorlarning umumiy hisobot yig'ilishida kuzatuv kengashi va taftish komissiyasi a'zolarini saylash, ijroiya organi va a'zolari bilan mehnat shartnomasini uzaytirish yoki muddatidan oldin to'xtatish, jamiyat auditorini va unga to'lanadigan eng yuqori xaq miqdorini

belgilash, auditorlik tekshiruvini o'tkazish, jamiyatning yillik hisoboti, shuningdek aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risidagi nizomda belgilangan boshqa hujjatlar majburiy tartibda qarab chiqiladi

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilish o'tkaziladigan sana va uni o'tkazish tartibi, yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallar ro'yhatini jamiyatning kuzatuv kengashi belgilaydi.

2.2. “Andijon –Paxta” OAJning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili

“Andijon paxta” paxtani qayta ishlash ochiqaksiyadorlik jamiyati mamlakatimizda xalq xo'jaligini real sektorlarini yanada yuksaltirish chorasidan olib borayotgan islohatlarni amalga oshira borib bir qator ijobiy natijalarga erishmoqdalar.

Quyidagi jadvalda “Andijon-paxta” OAJning asosiy texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili keltirilgan. Quyida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki oxirgi uch yil ichida sanoat mahsuloti ishlab chiqarish xajmi 135,0 foizga oshgan $((33094623: 24471268) \times 100)$, bu ko'rsatkich 2015- yilda 2014- yilga nisbatan esa, 123,0 foizga o'sgan edi $((33094623: 26881156) \times 100)$.

Mahsulot ishlab chiqarish xajmini yuqori sur'atlar bilan ortishicha yanada ishonchliroq oydinlik kiritish maqsadida asosiy turdagi mahsulotlar yetishtirishini natural ko'rsatkichlarda ifodasini ko'rib chiqamiz.

Xozirgi kunda hissadorlik jamiyati quyidagi asosiy turdagi mahsulotlarni ishlab chiqaradi:

- Paxta tolasi
- Paxta chigiti texnik maqsadlar uchun
- Urug'lik chigit (dorilangan)
- Urug'lik chigit (dorilanmagan)
- Paxta puxi

Asosiy mahsulot hisoblanga paxta tolasi ishlab chiqarish xajmi o'rganilayotgan yillar orasida keskin o'zgargan. . Keling paxta tolasining ishlab chiqarish hajmiga e'tibor qaratamiz. 2013- yilda jamiyatda 6341 tonna paxta tolasi ishlab chiqarilgan. 2014- yilda esa bu ko'rsatkich xajmi 6562 tonnani tashkil etgan bo'lsa, 2015-yildagi o'zgarishlar tufayli mahsulot ishlab chiqarish hajmi keskin ortgan va 10038 tonnaga yetgan. Bu esa 2013-yildagidan 58 foiz, 2014-yilgi mahsulot hajmidan esa 53 foiz ko'p demakdir

2.2.1 - jadval

“Andijon- paxta” OAJning asosiy texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkichlar	Yillar			O'zgarishi, %	
		2013	2014	2015	2015/ 2014	2015/ 2013
1	Mahsulotlarni sotishdan sof tushum, mln. so'm	24471268	26881156	33094623	123	135
2	Sotilgan mahsulotlar tannarxi mln. so'm	21216325	23240388	28703210	124	135
3	Mahsulotni sotishning yalpi foydasi, mln so'm	3254943	3640768	4391413	120	135
4	Xodimlar soni, jami: kishi	482	506	514	102	107
4.1	Shu jumladan: ishchilar kishi	467	484	492	102	105
5	Mehnat unumdorligi mln. so'm	67044	73647	90670	123	135
5.1	Shu jumladan ishchilar bo'yicha, mln. so'm	52401	55540	67266	121	128
6	Asosiy fondlar qiymati, mln. so'm	10345623	11798042	10551041	89	102
6.1	Fond qaytimi, so'm	2,37	2,3	3,14	137	133
7	Material sig'imi, so'm	0.87	0.86	0.87	101	100
8	Rentabellik, foiz	0,15	0,16	0,15	94	100
9	Mahsulotlar ishlab chiqarish xajmi, natural shaklida					
9.1	Paxta tolasi, tonna	6341	6562	10038	153	158
9.2	Texnik chigit, tonna	8666	3723	2955	79	34
9.3	Urug'lik chigit, tonna	51		274		537
9.4	Lint, tonna	301	223	447	201	148
9.5	Ulgak, tonna	119	91	203	220	171
9.6	Pux, tonna	1074	2766	4719	170	439

Manba: “Andijon-paxta” OAJning hisobot ma'lumotlari


Puh ni tahlil qilish

Yana bir muhim mahsulot bu texnik chigit hisoblanadi. Bu mahsulotning ishlab chiqarish dinamikasiga e'tibor qaratsak, korxonada pasayish yuzaga kelganini ko'rishimiz mumkin. Bu holat ishlab chiqarilgan mahsulot zahirasi bilan bog'liq. Ishlab chiqarish 2013- yilda 8666 tonnani tashkil etgan bo'lsa, 2014-yil va 2015- yilda ishlab chiqarish hajmi keskin kamaygan va 3723 va 2955 tonnani tashkil etgan.

Boshqa turdagi mahsulotlarda xam yuqoridagi holat kuzatilgan. Shuning uchun fikrimizga oydinlik kiritish maqsadida "Andijon –paxta" OAJning paxta mahsuloti xarakatini o'rganib chiqamiz. Masalan: 2013-yilda yil boshiga qoldiq paxta tolasi bo'yicha 2826 tonnani tashkil etgan, 6341 tonna tola ishlab chiqarilgan yil oxiriga qoldiq esa 7575 tonnaga to'g'ri kelgan.

2014- yilda yil boshiga qoldiq 7575 tonna, ishlab chiqarish 6562 tonna yil oxiriga qoldiq esa 9068 tonnaga to'g'ri kelgan. 2015- yilda esa yil boshiga qoldiq 9068 tonna ishlab chiqarish 10038 tonna, yil oxiriga qoldiq 1733 tonnani tashkil etgan.

2.2.1- diogramma



2.2.1. Iste'molchilarga jo'natilgan paxta tolasi va chigit miqdori

Yuqoridagi rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, jamiyat 2015 - yilda 15607 tonna paxta tolasini iste'molchilarga yetkazib bergan. Bu ko'rsatkich 2014-yilga nisbatan 6361 tonnaga ortiqdir. Chigit mahsulotlarini iste'molchilarga jo'natilgan miqdori 4400 tonna bo'lib, 2014-yilga nisbatan 1199 tonna kam bo'lgan.

2.3. “Andijon - Paxta” OAJning ishlab chiqarish xarajatlari va tannarx tahlili

Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida ishlab chiqarish xarajatlari korxonaning samaradorligini oshirishning asosiy bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. O'tgan davrda mamlakatimizda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish borasida katta ishlar amalga oshirildi. Bu maqsadda, mamlakatimizda bir qancha dasturlar tuzilmoqda va amalga oshirilmoqda.

Tannarxni pasaytirish dasturlarida muayyan davrda amalga oshirilishi mo'ljallangan loyihalar, ularning bajarilish bosqichlari va sarflanishi ko'zda tutilgan mablag'lar qiymati hududlar va tarmoqlar bo'yicha aks ettiriladi. Xarajatlarni pasaytirish dasturi malum bir mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlariga bog'liq bo'lib, unda har bir xarajatlarni o'zigatirish uchun mo'ljallangan chora-tadbirlar alohida ifodalangan bo'ladi.

Shuningdek, mamlakatimizda 2011 — 2015 yillarda sanoatni ustuvor darajada rivojlantirish dasturi va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir tarmoq dasturlari ham ishlab chiqilib, ularda iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlarini texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, ishlab chiqarishning zamonaviy andozalariga o'tish, tejamkor va samarali texnologiyalarni qo'llash kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi.

Bundan tashqari, hududlarimizda, avvalo, qurilish materiallari sanoati, oziq-ovqat, yengil sanoat va boshqa tarmoqlarda kichik biznes sohasida faoliyat olib boradigan yangi ishlab chiqarish korxonalari tashkil etish ularni rag'batlantirish mavjudlarini texnik – texnologik yangilash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu o'rinda, bitiruv malakaviy ishi ob'ekti hisoblangan "Andijon-Paxta" ochiq aksiyadorlik jamiyatiga e'tibor qaratsak.

Korxonalarining ishlab chiqarish va xo'jalik yuritish faoliyatini hajm o'lchamida izohlaydi. Bunday ko'rsatkichlar qatoriga ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdori, ishlayotgan xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondi, mashina va asbob-uskunalar parki, ishlab chiqarish dasturini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan materiallar miqdori, tsex hamda ish joylari soni va hokazolarni kiritish mumkin.

Korxonaning ishlab chiqarish faoliyatidagi o'zgarishlarni nisbiy kattaliklar: mehnat mahsuldorligining o'sishi, mahsulot tannarxining bazis davrga (yoki reja hisobotiga) nisbatan foizlarda kamayishi, mahsulotning to'liq tannarxiga nisbatan foizlarda daromad hajmi, korxonalar rentabellik darajasining o'sishi va shu kabilar yordamida tavsiflaydi.

Sifat ko'rsatkichlari aksari hollarda pul qiymatida ifodalanishi sababli, korxonalarining xo'jalik faoliyatini rejalashtirish va tahlil qilish amaliyotida asosiy va aylanma fondlar, asbob-uskunalar, sarflanayotgan yoqilg'i, energiya va boshqa materiallar kabi qiymat ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Qiymat ko'rsatkichlari korxonalar faoliyatida qo'llaniluvchi turli xildagi vositalarni statika va dinamikada taqqoslash imkonini beradi. Bundan tashqari, soliqlar va turli xil to'lovlar hamda korxonalar daromadi foizlardan tashqari pul ko'rinishida ham o'lchanadi.

Korxonalar faoliyatini rejalashtirish korxonalar va uning bo'linmalari faoliyatini tahlil qilishdan boshlanishini aytib o'tish muhim. Mazkur tahlil davomida rejaning sifat, miqdor va qiymat ko'rsatkichlari bo'yicha bajarilishiga baho beriladi hamda talofat va yo'qotishlar aniqlanib, korxonalar faoliyatini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Aynan shu chora-tadbirlar va yangi maqsadlardan kelib chiqqan holda joriy rejalashtirish amalga oshiriladi hamda yangi reja davriga korxonalar faoliyati rejalari ishlab chiqiladi.

Quyida jadvalda Andijon viloyatidagi «Andijon - Paxta» ochiq aksiyadorlik jamiyatining ishlab chiqarish dasturini belgilanishi bo'yicha, qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tarkibini ko'rish mumkin. Korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini tahlil qilish uchun uning asosiy ko'rsatkichlarini, jumladan, ishlab chiqarish

yo'nalishi bo'yicha jamiyatda ishlab chiqariladigan tayyor mahsulot, jamiyatda faoliyat ko'rsatayotgan ishchi va xizmatchilar, mehnatga xaq to'lash tizimi, ishlab chiqarish tannarxi, ishlab chiqarish samaradorligi hamda jamiyatning provard natijasi ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

3-jadval

«Andijon - Paxta» ochiq aksiyadorlik jamiyatining ishlab chiqarish dasturini belgilanishi bo'yicha, qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tarkibi

№	KO'RSATKICHLARI	O'LCHOV BIRLIGI
1.	Tovar mahsuloti hajmi	Mln.so'm
2.	Ishlab chiqarilgan paxta mahsulotlari	Kom.(tonna)
3.	Jami xodimlar soni	Kishi
	Shu jumladan:	
	Ma'muriy xodimlar	Kishi
	Injener-texnik xodimlar soni	Kishi
	Ishchilar soni	Kishi
4.	Mehnat unumdorligi	Ming so'mg'kishi
5.	Ish xaqi jamg'armasi	Mln.so'm
6.	O'rtacha yillik ish xaqi	So'm
7.	Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi	Mln.so'm
8.	Yalpi foyda	Ming.so'm
9.	Sof foyda	Ming so'm
10.	Rentabillik darajasi	Foiz

Manba. «Andijon - Paxta» ochiq aksiyadorlik jamiyatining ishlab chiqarish dasturi asosida olindi.

Yuqoridagi keltirilgan ko'rsatkichlar bo'yicha korxonani o'sib borish tartibida oylik, choraklik va yillik ishlab chiqarish dasturlari tuziladi va asosiy e'tiborni ushbu ochiq aksiyadorlik jamiyatining faoliyatining ishlab chiqarish dasturlarining bajarilishini tahlil qilishga qaratiladi. Ushbu tahlilni amalga oshirish uchun korxonaning bozor aktivligi ko'rsatkichlari, xarajatlar va ularning qoplanishi, «Andijon -Paxta» ochiq aksiyadorlik jamiyatning rentabellik ko'rsatkichlari, ularning turlari va o'zgarishlari, korxonaning to'lov qobiliyati, jamiyatning moliyaviy natijalari tarkibi, tuzilishi va dinamik o'zgarishlari kabi tahlillarni bajarish lozim.

Shuningdek, jamiyat faoliyatini tahlil qilishda asosiy ko'rsatkichlardan biri bu korxonaning bozor aktivligi ko'rsatkichidir. Bozor aktivligi ko'rsatkichlariga aksiyalar, qimmatli qog'ozlarning foydalilik darajasini xarakterlovchi ko'rsatkichlar kiritiladi. Ular qatoriga bitta aksiyaga to'g'ri keladigan xisob

foydasini yoki sof foydasini, bir aktsiyaga to'g'ri keladigan dividend miqdori, aktsiyalarning bahosi va foydasini orasidagi nisbat koeffitsientlari kiradi.

4-jadval

“Andijon - Paxta” ochiq aktsiyadorlik jamiyatining bozor aktivligi ko'rsatkichlari tahlili

№	Ko'rsatkichlar	2013- yil	2014- yil	2015- yil	2015 yilda 2014 yilga farqi (+;-)
1	Sotishdan olingan sof tushum (ming so'm)	24471268	26881156	33094623	6213467
2	Yalpi foyda	3254943	3640768	4391413	750645
3	Soliq to'langunga qadar foyda (ming so'm)	162246	184205	229934	45729
4	Sof foyda (ming so'm)	69712	80523	158021	77498
5	Aktsiyalarning umumiy soni (dona)	78000	78000	78000	-
6	Bitta aktsiyaga to'g'ri keladigan sof tushum (ming so'm)	313,73	344,63	424,3	79,67
7	Bitta aktsiyaga to'g'ri keladigan soliq to'langunga qadar foyda (ming.so'm)	2,1	2.4	3,0	0,6
8	Bitta aktsiyaga to'g'ri keladigan yalpi foyda (ming.so'm)	41,7	46,7	56,3	9,6
9	Bitta aktsiyaga to'g'ri keladigan sof foyda (ming.so'm)	0,89	1.03	2,03	1
10	Bitta aktsiyaning ishlab chiqarish bahosi (dona . so'm)	1200	1200	1200	-

Manba: Korxonaga ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Foydaga tannarxni bn sof tushumning ta'siri

Jadval ma'lumotlariga nazar tashlanganda, korxonaga nizom jamg'armasini shakllantirish maqsadida chiqarilgan 78000 dona aktsiyaning ishlab chiqarish tannarxi 1200 so'm bo'lgani xolda daromadlilik korxonaga sof foydasini o'sishi

xisobiga oshib bormoqda. Jumladan, bitta aksiyaga to'g'ri keladigan sof foyda so'mmasi 2013- yilda 0,89 mln. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2014- yilda 1.03 mln. so'mga, 2015- yilda esa 2.03 mln. so'mgacha ko'tarildi, Bu ko'rsatkich 2014- yilga nisbatan 1 mln. so'mga oshganligini ko'rish mumkin. Bu korxonada aksiyalarini qadrini oshib borayotganligidan dalolat beradi. Buning asosiy sababi sifatida korxonaning sof foydasi yildan yilga oshib borayotganligidadir.

Korxonada o'z faoliyatini albatta ma'lum bir xarajat bilan boshlashi hammamizga ayon. Bu esa uni yakundagi darajasiga asos, negiz vazifasini o'taydi. Har qanday daromad qaysidir miqdordagi xarajatlarni talab etishi ham barchamizga ma'lum bo'lib, jamiyat faoliyatini tahlili qilishda eng yirik ko'rsatkichlardan tortib ularni bir birligigacha tahlili qilish katta ahamiyat kasb etadi. Bu qoidaga amal qilgan holda jamiyat tayyor mahsulotini shakllantirish uchun qilingan sarflar va ularni xarajatlarni tarkibidagi salmog'ini tahliliga kirishish mumkin.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni o'rganish korxonada faoliyatining qanday rivojlanganligini, bugungi ahvoli qanday va kelajakda qanday bo'lishi mumkinligini ifodalaydi.

Bundan tashqari jamiyatga investitsiya kiritilishi mumkinligini aniqlash uchun jamiyatning to'lov qobiliyatini ham tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Jamiyatning to'lov qobiliyati-bu ularni o'z aktivlari xisobiga qisqa muddatli va uzoq muddatli majburiyatlarini o'z muddatida bajarishga tushuniladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki yuqorida hisoblash natijalarini belgilangan darajada me'yor ko'rsatkichlari mavjud bo'lib, uni quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin va shu asosida xulosa hamda takliflarni ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

5-jadval.

“Andijon - Paxta” ochiq aksiyadorlik jamiyatining xarajatlari va ularning qoplanish tahlili

№	Ko'rsatkichlar	2013- yil	2014- yil	2015- yil	2015 yilning 2013-yilga nisbatan o'zgarishi

1	Sotishdan olingan sof tushum (ming so'm)	24471268	26881156	33094623	135
2	Sotilgan mahsulot tannarxi (ming so'm)	21216325	23240388	28703210	135
3	Davr xarajatlari (ming so'm)	2005124	2408068	2808236	140
4	Asosiy faoliyat foydasi (ming so'm)	1032475	1255328	1605479	155
5	Soliqlar (ming so'm)	62431	103682	71913	
6	Sof foyda (ming so'm)	64678	80523	158021	244
7	1 so'mlik sotilgan mahsulot to'g'ri kelgan ishlab chiqarish xarajatlari (tiyin)	87	86	88	102
8	1 so'mlik sotilgan mahsulot to'g'ri keladigan davr xarajatlari (tiyin)	8	9	8	100
9	1 so'mlik sotilgan mahsulotga to'g'ri keladigan asosiy faoliyat foydasi(tiyin)	4	5	5	120
10	1 so'mlik sotilgan mahsulot to'g'ri keladigan soliqlarga xarajatlar (tiyin)	0.3	0.4	0.2	67
11	1 so'mlik sotilgan mahsulot to'g'ri keladigan sof foyda (t)	0.3	0.4	0.5	157

Manba: Korxonada ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Jadvaldagi ma'lumotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki "Andijon - Paxta" ochiq aksiyadorlik jamiyatida bir so'mlik sotilgan tayyor mahsulotga 2013- yilda qilingan ishlab chiqarish xarajatlari 87 tiyinni yoki 87 foizni tashkil qilgan xolda davr xarajatlari 8 tiyinni, soliqlar va boshqa yig'imlar 5.2 tiyinni tashkil qilgan bo'lsa, bir so'mlik sotilgan tayyor mahsulotga to'g'ri keladigan asosiy faoliyat foydasi 4 tiyinni, sof foydasi esa 0.3 tiyinni tashkil qilgan

2014-yilda esa ishlab chiqarish hajmi oshdi, ammo xarajatlarning ham ortishi kuzatilsada, bir so'mlik sotilgan tayyor mahsulotga qilingan ishlab chiqarish xarajatlari 86 tiyinni yoki 86 foizni, davr xarajatlari 9 tiyinni, soliqlar 0.4 tiyinga yetgan bo'lsa, asosiy faoliyat foydasi bir so'mlik tovar mahsulotini 5 tiyinni tashkil qildi, sof foyda esa har bir so'mlik sotilgan tovar mahsulotida 0.4 tiyinga yetdi.

2015-yilda esa xolat asosiy faoliyat bo'yicha yaxshilandi lekin, olingan uzoq muddatli majburiyatlarni tufayli moliyaviy faoliyatdan umumiy xarajatlarni ortishi kuzatildi. Jumladan bir so'mlik sotilgan tovar mahsulotiga to'g'ri keladigan ishlab

chiqarish xarajatlari 88 tiyinga tashkil etdi, davr xarajatlari 8 tiyinga tushdi va undagi 2014-yilga nisbatan 1 tiyinga kamaytirilib ijobiy natijaga erishildi. Soliqlarga e'tiborni qaratadigan bo'lsak undagi kamayishni davomiyligi saqlanib qolmoqda va uni bir so'mlik tovar mahsulotidagi ulushi 0.2 tiyinni tashkil qildi.

Daromadlar tarkibiga kiruvchi asosiy faoliyat foydasini bir so'mlik tovar mahsulotidagi ulushi 5 tiyimgacha ko'tarildi va oxirgi uch yillik farq 20 foizga ortdi. Bu albatta ijobiy xolat yuqorida aytib o'tganimizdek moliyaviy xarajatlar tarkibiga kiruvchi foiz shaklidagi xarajatlarni to'lash bilan bog'liq jarayonga sarflangan mablag'lar sof foydani bir so'mlik sotilgan tovar mahsulotidagi ulushi 2013 yilga nisbatan 0,2 tiyinga oshib, 0.5 tiyin bo'lishini ta'minladi.

3. Korxonada faoliyatini natijaviyligiga baho berishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri rentabellikdir.

Rentabellik – korxonada foydalilik darajasini xarakterlaydi.⁵ Odatda uning bir necha turlari hisob kitob qilinadi. Rentabellik ko'rsatkichlari xaqida gap boshlaganimizdan bilib turibsizki endi navbatdagi tahlilimiz bevosita "Andijon - Paxta" ochiq aksiyadorlik jamiyatining rentabellik ko'rsatkichlari tahliliga qaratiladi.

6-jadval

"Andijon - Paxta" ochiq aksiyadorlik jamiyatining ayrim ko'rsatkichlari rentabelligi tahlili.

№	Ko'rsatkichlar	2013- yil	2014- yil	2015-yil	2015-yilning 2013-yilga nisbatan o'zgarishi, foizda
1	Mahsulot (ish, xizmat) lar sotishdan olingan sof tushum (ming so'm)	24471268	26881156	33094623	135
2	Sotilgan mahsulot tannarxi (ming so'm)	21216325	23240388	28703210	135
3	Mahsulotlar sotishdan olingan yalpi foyda (ming so'm)	1032475	1255328	1605479	155
4	Sof foyda (ming so'm)	64678	80523	158021	244
	Mah. sotish rentabelligi	0.04	0.05	0.05	125

⁵ Vahobov A. B va boshqalar "Moliyaviy va boshqaruv tahlili" "Sharq" Toshkent 2006-yil 260- bet.

I/Ch tannarxi rent. %	0,87	0,86	0,85	104
Umumiy rentabellik %	0,47	0,17	0,24	-0,23

Manba: Korxonada ma`lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Jadval ma`lumotlari shuni ko`rsatadiki tadqiqot ob`ektimiz xisoblangan “Andijon - Paxta” ochiq aksidaorlik jamiyatida rentabellik ko`rsatkichlari bo`yicha quyidagi natijalar berilgan:

Sotish rentabelligi sotilgan mahsulotlarning foydalilik darajasini ifodalaydi. 2013 yilda sotish rentabelligi korxonada 0.04 foizni tashkil qilgan bo`lsa 2014-yilda 0.05 foizga, 2015-yilda esa 0.05 foizgacha oshdi. Bu sotilgan mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxini kamayganligidan dalolat bermoqda.

Ishlab chiqarish tannarxi rentabelligi. Bu ko`rsatkich bir so`mlik ishlab chiqarish xarajati xisobiga olingan foyda so`mmasini xarakterlaydi. Va undagi dinamik o`zgarish oxirgi uch yilda 0,87 foizdan 0,85 foizgacha tushdi.

III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA KORXONALARIDA MAHSULOT TANNARXINI KAMAYTIRISH YO`LLARI.

3.1. Mahsulot tannarxini kamaytirish omillari va manbalari.

Mehnat unumdorligini oshirish, xomashyo va material, yoqilg`i va elektroenergetika xarajatlarini kamaytirish, xizmat ko`rsatish va boshqarish sarflarini qisqartirish, ishlab chiqarishdan tashqari, xarajatlarni tejash sanoat mahsuloti tannarxini pasaytirishning eng muhim manbalari hisoblanadi.

Mehnat unumdorligini oshirish uchun yangi texnika, texnologiya jarayonlarini va ishlab chiqarishni o`stirish yoki tashkil etishning ilg`or usullarini joriy qilish orqali har bir mehnatchi tomonidan tayyorlanayotgan mahsulotni

ko'paytirish kerak bo'ladi. Bu holda har bir mahsulot birligiga sarflanadigan ish haqi qisqaradi, ammo ishchining umumiy ish haqi esa ortib boradi. Mehnat unumdorligi ish haqiga nisbatan jadal o'sgandagina tannarx pasayadi.

Mehnat unumdorligining o'sish mohiyati shundan iboratki, bunda mahsulot ishlab chiqarishga ketadigan jonli mehnat ulushi kamayadi, ilgari sarflangan mehnatning ulushi esa ortadi, biroq mahsulot birligi uchun ketadigan mehnat sarfi qisqaradi.

Material, yoqilg'i va elektr energiya xarajatlarini kamaytirish uchun ularni tejab sarflash, qimmatbaho materiallarni arzon, Lekin yaxshi materiallar bilan almashtirish, ularni sotib olish va korxonaga keltirish bilan bog'liq bo'lgan sarflarni qisqartirish kerak bo'ladi.

Xizmat ko'rsatish va boshqarish uchun ketadigan xarajatlarni qisqartirishga esa tarmoq va korxonalaridagi ma'muriy boshqaruv apparatining sarflarini kamaytirish, asbob-uskuna, bino va inshootlarni saqlash, yoritish, isitish uchun ketadigan mablag'larni tejab-tergab sarflash orqali erishiladi.

Unumsiz xarajatlarni (jarima to'lash, penya va hokazolar) tugatish mahsulot tannarxini pasaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnika taraqqiyoti ishlab chiqarishni tashkil etishning ijtimoiy shakllarini takomillashtirishning, ishlab chiqarishni ratsional joylashtirish, ishlab chiqarish va mehnatni korxonaning ichida uyushtirishni yaxshilash mahsulot tannarxini pasaytirishning ta'minlovchi omillari bo'lib hisoblanadi. Masalan, texnika taraqqiyoti mahsulot tannarxini pasaytirishning barcha manbalariga ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarishni elektrlashtirish va elektronizatsiyalash hamda kompleks avtomatlashtirish, ximiyalash mahsulot tayyorlash uchun sarflanadigan solishtirma xarajatlarni kamaytiradi.

Har bir korxonada mahsulot tannarxini pasaytirish darajasini hisoblash uchun eng avvalo undagi rezervlarni, ya'ni foydalanilmayotgan imkoniyatlarni aniqlash kerak. Ular ko'zga tashlanadigan, yuzaki, juda murakkab, ko'z ilg'amaydigan

bo'lishi mumkin. Faqat chuqur, har taraflama iqtisodiy-texnik tahlildan keyin ularni aniqlash, topish mumkin bo'ladi.

Rezervlar har xil belgilarga qarab guruhlarga ajratilishi mumkin. Ular eng avvalo to'planish joyiga qarab ichki ishlab chiqarish va tashqi rezervlarga ajraladi.

Tashqi rezervlarga tarmoqlar bo'yicha rezervlar, regional (hududiy) va tabiiy-ekologik rezervlar kiradi.

Rezervlar safarbar etilishi muddati bo'yicha joriy va istiqbolli rezervlarga ajraladi.

Rezervlarni ishlab chiqarish jarayonlarining elementlari bo'yicha ham guruhlarga bo'lish mumkin. Bunday rezervlarga mehnat, moddiy va asosiy fondlardan foydalanish rezervlari kiradi.

Korxonalar yoki tarmoq faoliyatini tahlil etish uchun rezervlarni ikkiga bo'lib ko'rish mumkin:

tashkiliy-texnikaviy rezervlar;

ijtimoiy-iqtisodiy rezervlar.

Mana shu yuqorida keltirilgan barcha rezervlar, ya'ni foydalanilmayotgan imkoniyatlarni safarbar etish, ishga solish hamda shu asosda tannarxni keskin pasaytirish uchun bir qator omillardan keng foydalanish va ularni hisoblab chiqish kerak. U ishning metodikasi, usulini "Korxonalar faoliyatini tashkil etish, rejalashtirish va boshqarish" fanidan o'qiladigan ma'ruzalarda, amaliy mashg'ulotlarda chuqurroq va har tomonlama tushuntirib beriladi.

Mahsulot tannarxini rejalashtirish mehnat, moddiy va moliyaviy mablag'lardan oqilona foydalanish asosida ishlab chiqarishning yuqori samaradorligiga erishishga qaratilgan. Tannarx rejasi quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

Mahsulot tannarxini pasaytirish rejasi;

Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya etish;

Ishlab chiqarish xarajatlari smetasi;


Tovar va sotiladigan mahsulot tannarxining hisobi.

Tannarx rejasi, ikki bosqichda ishlab chiqiladi. Birinchi bosqichda, eng avvalo, hisobot yilida rejalarning bajaralishi tahlil etiladi, mahsulot tannarxini pasaytirish, foyda va rentabellikni oshirish rezervlari aniqlanadi va aniqlangan rezervlardan foydalanish tadbirlari belgilanadi, reja loyihasi ishlab chiqiladi. Ikkinchi bosqichda esa rejaning uzil-kesil loyihasi ishlab chiqiladi va bu reja topshiriqlari korxonalar bo'limlariga yetkaziladi.

Mahsulot tannarxi va uni pasaytirish topshiriqlari davlat va korxonalar rejasida yuqoridan belgilanmaydigan, aksincha, korxonalarining o'zida hisob qilinadigan ko'rsatkich hisoblanadi. Shunga qaramay, mahsulot tannarxi sanoat ko'rsatkichlaridan biri bo'lib qolaveradi. Chunki sanoat mahsuloti tannarxini pasaytirish ishlab chiqarishning rentabellik darajasini oshirish rezervlaridan biri hisoblanadi. Mahsulot tannarxi qanchalik past bo'lsa, albatta, boshqa shart-sharoitlar bir xil bo'lgan holda (masalan, xuddi o'sha mahsulotning narxi barqaror bo'lganda) uni sotishdan kelgan foyda ham shunchalik ko'p bo'ladi.

3.2. Korxonalarini modernizatsiyalash–korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishning muhim omilidir.

Mamlakatimizda inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishda investitsiyalarni jalb etish, avvalo, ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yo'nalishga



3.2.1-chizma.

Yuqorida ta`kidlanganidek, mamlakatimizda investitsiyalarni jalb etishda avvalo ichki manbalarni safarbar etishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Bu yangi ishlab chiqarishni tashkil etish yoki mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini yanada kengaytirishda investorlarning o'z moliyaviy resurslari – korxonada foydasi, amortizatsiya ajratmalari, pul jamg'armalari va boshqalardan kengroq foydalanish zarurligini anglatadi. Chunki, ichki manbalarning to'liq safarbar etilishi, bir tomondan, mavjud iqtisodiy resurslardan tejimli va oqilona foydalanishni ta'minlasa, boshqa tomondan, investitsiyalarning samaradorligini oshiradi.

Mamlakat miqyosidagi investitsiya faoliyatini samarali amalga oshirish maqsadida investitsiya dasturi ishlab chiqiladi. Investitsiya dasturlarida muayyan davrda amalga oshirilishi mo'ljallangan loyihalar, ularning bajarilish bosqichlari va sarflanishi ko'zda tutilgan mablag'lar qiymati hududlar va tarmoqlar bo'yicha aks ettiriladi. Investitsiya dasturlari uzoq muddatga mo'ljallangan bo'lib, unda har bir yil uchun mo'ljallangan chora-tadbirlar alohida ifodalangan bo'ladi.

Shuningdek, mamlakatimizda texnik modernizatsiyalash bo'yicha tarmoq dasturlari ham ishlab chiqilib, ularda iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlarini texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, ishlab chiqarishning zamonaviy andozalariga o'tish, tejimkor va samarali texnologiyalarni qo'llash kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi.

Jumladan, mamlakatimizda 2012-2016 yillarga mo'ljallangan ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta qurollantirish bo'yicha muhim loyihalarni amalga oshirish choralari dasturi umumiy qiymati 42,51 mlrd. doll.dan iborat 852 ta investitsiya loyihasini o'z ichiga oladi. 2012- yilda tasdiqlangan ayrim tarmoq dasturlari to'g'risidagi ma'lumotni quyidagi jadval orqali ko'rish mumkin.

3.2.1-jadval.

Modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta qurollantirishning tasdiqlangan tarmoq dasturlari

Tarmoqlar	Loyihalar soni, dona	Loyihalar qiymati, mln.
------------------	-----------------------------	--------------------------------

		doll.
Paxta tozalash sanoati	41	129,7
To'qimachilik sanoati	65	477,7
Yogʻ-moy sanoati	63	31,7
Kimyo sanoati	30	291,7
Avtomobil sanoati	26	255,1
Qurilish materiallari sanoati	36	343,1
«Oʻzmetkombinat» aksiyadorlik ishlab chiqarish birlashmasi	9	49,0
Farmatsevtika tarmogʻi	45	26,5
Navoiy togʻ-kon metallurgiya kombinati	26	892,1
Olmalik togʻ-kon metallurgiya kombinati	13	405,3
Qishloq xoʻjalik mashinasozligi	13	28,0
Temir yoʻl tarmogʻi	18	1734,2

Manba: Oʻz. Res. Statistika qumitasi malumotlari.

Respublikamizda investitsiya dasturi va texnik modernizatsiyalash boʻyicha tarmoq dasturlari doirasida 690 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilib, ularning 303 tasi muvaffaqiyatli yakunlandi. Buning natijasida 22 ta yirik ishlab chiqarish obʼekti, jumladan, neft -gaz, kimyo, metallurgiya sanoatida 8 ta, mashinasozlik sanoatida 9 ta va qurilish industriyasida 5 ta obʼekt foydalanishga topshirildi.

Bundan tashqari, hududlarimizda, avvalo, qurilish materiallari sanoati, oziq-ovqat, yengil sanoat va boshqa tarmoqlarda kichik biznes sohasida faoliyat olib boradigan 480 dan ortiq yangi ishlab chiqarish korxonalari tashkil etildi. Iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va xalqimiz farovonligini oshirishda mamlakatimiz hududlarida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish masalalariga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Iqtisodiy islohotlarni qonuniy jihatdan taʼminlashga yoʻnaltirilgan bunday va boshqa bir qator tadbirlar 2012-2016 yillarga moʻljallangan, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini imkon qadar kamaytirishga qaratilgan Inqirozga qarshi choralar dasturini samarali amalga oshirishni huquqiy taʼminlash, dunyodagi sanoqli davlatlar qatorida Oʻzbekistonga iqtisodiyotning barqaror oʻsish surʼatlarini saqlab qolish va aholining real daromadlarini oshirish imkonini berdi⁶.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy oʻzgarishlarning tahlili shuni koʻrsatadiki, qoʻlga kiritilayotgan yutuq va muvaffaqiyatlarning asosida iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonining oʻrni ahamiyatli hisoblanadi.

⁶ Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. - Prezident Islom Karimovning Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qoʻshma majlisidagi maʼruzasi // Xalq soʻzi, 2010 yil 29 yanvar .

Shunga ko'ra, hozirda modernizatsiya jarayonining nazariy va metodologik asoslarini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Eng avvalo, modernizatsiya atamasining mazmuniga to'xtaladigan bo'lsak, odatda uni texnika, texnologiyaga oid tushuncha deb qaraladi. Jumladan, iqtisodiyotga oid aksariyat lug'atlarda unga quyidagi mazmundagi ta'rif beriladi: «Modernizatsiya – ob'ektni yangilash, yaxshilash, takomillashtirish, uni yangi talablar va me'yorlarga, texnik shartlarga, sifat ko'rsatkichlariga muvofiqlashtirish. Asosan mashina, asbob-uskunalar, texnologik jarayonlar modernizatsiyalanadi»⁷. Fikrimizcha, bu modernizatsiyaga tor ma'nodagi yondashuv bo'lib, bugungi kunda uning keng ma'nodagi mazmuni tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

Modernizatsiya – an'anaviy jamiyatning ilg'or, industrial jihatdan taraqqiy etgan jamiyatga aylanishini ta'minlovchi ijtimoiy-tarixiy jarayon. Modernizatsiyaning keng ma'nodagi mazmunini tushunishda iqtisodchi olim R.Nureev uning neoklassik va keynscha talqinlarini farqlaydi. Jumladan, neoklassiklar tomonidan modernizatsiyaga xususiy mulkchilik va demokratiyani mustahkamlash sifatida yondashilsa, keynschilar tomonidan, eng avvalo, xo'jalikning asosiy tarmoqlarini qamrab oluvchi tarkibiy o'zgarishlar sifatida tushuniladi. Dastlabki o'ringa texnik-iqtisodiy muammolar qo'yiladi. Xo'jalikning zamonaviy tarmoqlarining mavjud bo'lmasligi taraqqiyotning asosiy to'sqinlik kuchi sifatida qabul qilinadi⁸.

Umuman olganda, modernizatsiya an'anaviy jamiyatdan industriallashtirilgan, yirik mashinalashgan ishlab chiqarishga hamda ijtimoiy jarayonlarni qonunlarga tayangan holda oqilona boshqarishga asoslangan jamiyatga o'tish jarayonlarini namoyon etadi. Nazariyada modernizatsiya deganda «an'anaviy tarzda yopiq jamiyat»ga qarama-qarshi o'laroq «zamonaviy ochiq tarzda jamiyat»ni shakllantirishga olib keluvchi industriallashtirish, sekulyarlashtirish, urbanizatsiya, umumiy ta'lim, vakolatli siyosiy hokimiyat tizimlarining qaror topishi, hududiy va ijtimoiy safarbarlikning kuchayishi kabi jarayonlarning majmui tushuniladi.

⁷ <http://ekonomic.doco.ru/?idq797665467>

⁸Nureev R. Modernizatsiya ekonomiki: kontseptsii i sredstva. - <http://www.soob.ru/n/2005/10/c/6>.

Bundan ko'rinadiki, modernizatsiya juda keng tushuncha bo'lib, bugungi kunda uni jamiyat hayotining turli jabhalarini tubdan o'zgartirish, yangilash, bu borada taraqqiyotni jahondagi mavjud ilg'or andozalar tomon yo'naltirish va takomillashtirish jarayonlarining majmui sifatida ifodalash mumkin.

Bugungi kunda modernizatsiyalash jarayonlari mamlakatimiz hayotining deyarli barcha jabhalarini qamrab olgan. Ayniqsa, mazkur yo'nalishlar orasida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash muhim o'rin tutadi.


Zero, milliy iqtisodiyotning barqaror va samarali amal qilishini ta'minlash, uni jahonning rivojlangan mamlakatlari taraqqiyoti darajasiga olib chiqish, turli siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar, jahon bozori kon`nkturasidagi tebranishlar, inqiroz holatlariga nisbatan «chidamliligi», mustaqil rivojlana olish imkoniyat va salohiyatlari aynan iqtisodiyot turli darajalari ishlab chiqarish jarayonlaridagi tub islohotlar va ularning natijalariga bog'liqdir. Biroq, shu bilan birga ishlab chiqarishni modernizatsiyalash ijtimoiy-iqtisodiy hayotning boshqa sohalaridagi o'zgarishlarga chambarchas bog'liq. Ya'ni, barcha soha va jabhalar o'rtasida jadal isloh etish va modernizatsiyalash jarayonlarining amalga oshirilishida izchillik va mantiqiy muvozanatni ta'minlashga harakat qilish lozim. Shu o'rinda modernizatsiyalash jarayonining jamiyat har bir a'zosining ongliligi va mustaqilligini oshirishdagi o'rniga alohida e'tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz. Chunki, iqtisodiyot hamda mamlakat hayotining boshqa sohalarini modernizatsiyalash eng avvalo ushbu jarayonlarda ishtirok etuvchi, ularni amalga oshiruvchi va doimiy ravishda takomillashtirib boruvchi jamiyat a'zolari dunyoqarashi, tafakkurining o'zgarishi, ularning demokratik va tub islohot jarayonlaridagi faolligi oshishiga bevosita bog'liqdir.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari va vositalari⁹

Eskirgan asbob-uskunalarni foydalanishdan chiqarish

Ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentini kengaytirish

⁹Manba: Saidova G. Modernizatsiya, texnicheskoe obnovenie i diversifikatsiya proizvodstva, shirokoe vnedrenie innovatsionno'x texnologiy – neobxodimoe uslovie vo'xoda Uzbekistana na novo'e rubeji na mirovom ro'nke / «Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, o'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va chorolari» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumanidagi taqdimot materiallari. – T., TDIU, 2009 yil 5 may.



3.2.2-chizma.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan ko'rinadiki, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish – zamon talabidir. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar qatorida munosib o'rin egallash, milliy mahsulotlarimizning jahon bozorlaridagi raqobatdoshligini ta'minlash, shu asosda eksport hajmini sezilarli darajada oshirish mavjud soha va tarmoqlarni texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash asosida modernizatsiyalashni taqozo etadi. Ayni paytda, jahon bozoridagi ehtiyoj va talabning o'zgarishini hisobga olgan holda iqtisodiyotimiz tarkibiy tuzilmasini takomillashtirib borish, bu maqsadda yangi, zamonaviy tarmoqlarni barpo etish va jadal rivojlantirish lozim bo'ladi.


2012-2016- yillarga mo'ljallangan inqirozga qarshi choralar dasturining dastlabki bosqichida belgilangan vazifalar muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirildi. Endilikda mazkur dasturning navbatdagi chora-tadbirlarini so'zsiz bajarishga e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Chunki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining navbatdagi bo'hronlari domiga tushib qolmaslik, uning uzoq muddat davom etadigan, asoratli ta'sirlaridan tezroq xalos bo'lishda inqirozga qarshi choralarni mantiqan oxiriga yetkazish va shu asosda iqtisodiy rivojlanishning yuqori va barqaror sur'atlarini, samaradorligini hamda makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash muhim o'rin tutadi.

3.3. Korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish yo'llari.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini mutanosib rivojlantirish, uning samarali tarkibiy tuzilmasiga ega bo'lish va shu orqali barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishish Vatanimiz taraqqiyoti va xalq farovonligini ta'minlashning muhim shartlaridan hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun esa eng avvalo iqtisodiyotning real sektorini jadal rivojlantirish zarur bo'ladi. Shunga ko'ra, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash dolzarb ahamiyat kasb etib, respublikamizda ushbu jarayon bir qator asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirildi.

Prezidentimiz Islom Abdug'anyevich Karimov Vazirlar Mahkamasi yig'ilishidagi ma'ruzasida amalga oshirilgan, erishilgan yutuqlarni qayd etish bilan birga, bugungi kunda davlat va jamiyat qurilishi sohasida mamlakatimiz oldida turgan ulkan vazifalar, global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davom etayotgan og'ir bir sharoitda iqtisodiyotimizning yanada barqaror rivojlanishini ta'minlash, uni diversifikatsiya va modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni qayta jihozlash kabi ishlarni izchil davom ettirish zarurligi to'g'risida ham batafsil to'xtalib o'tdilar.

Iqtisodiyot real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari



3.3.1-chizma.

Ayniqsa, real sektor korxonalarini qo'llab-quvvatlashda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ichki talabni rag'batlantirish masalalari alohida o'rin tutdi.


Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotining deyarli barcha tarmoq va sohalarida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan

qayta jihozlash tadbirlarining keng ko'lamda amalga oshirilishi raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Biroq, bu boradagi jiddiy muammo – ayrim mahsulotlarimiz tannarxining yuqori darajada qolayotganligi ularning raqobatdoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida»gi (2008 yil 28 noyabr) 4058-sonli Farmonida muhim chora-tadbirlar qatorida mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalarining barcha resurslardan samarali foydalanishi hisobiga mahsulot tannarxini 20 foizdan kam bo'lmagan miqdorda pasaytirish orqali ularning raqobatdoshligini ta'minlash vazifasi ham belgilab berilgan edi.

Ushbu vazifani amalga oshirish doirasida mamlakatimiz korxonalarida tannarxni pasaytirishning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarga alohida e'tibor qaratildi.

Tannarxni pasaytirishning asosiy yo'nalishlari



3.3.2-chizma.

Natijada sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxi 18 foizga, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, «O'zmetkombinat» aksiyadorlik ishlab chiqarish birlashmasi, «O'zeltexsanoat» uyushmasi,

«O'zqurilishmateriallari» kompaniyasi singari va boshqa korxonalar va tarmoqlarda 20-25 foizga kamaydi. Jumladan, respublikamizda iqtisodiyot komplekslari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxini pasaytirish bo'yicha erishilgan natijalarni quyidagi jadval orqali ko'rishimiz mumkin. Jadvaldan ko'rinadiki, respublikamiz bo'yicha mahsulotlar tannarxini 2079,5 mlrd. so'mga yoki 20,38 foizga qisqartirishga erishilgan.

Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlashdagi muhim tadbirlardan yana biri – turli sabablarga ko'ra vujudga kelgan hamda korxonaning sog'lom moliya-xo'jalik faoliyati yuritishiga jiddiy ta'sir ko'rsatib kelayotgan qarzlarni qayta ko'rib chiqish (restrukturizatsiya qilish) hisoblanadi.

3.3.1-jadval.

O'zbekistonda iqtisodiyot komplekslari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxini pasaytirish bo'yicha erishilgan natijalar

Komplekslar nomi	Mahsulot tannarxining pasayishi	
	mlrd. so'mda	foizda
Geologiya, yoqilg'i-energetika, kimyo, neft -kimyo va metallurgiya sanoati kompleksi	1156,3	21,9
Mashinosozlik, elektrotexnika va aviatsiya sanoati hamda mahsulotlarni standartizatsiyalashtirish kompleksi	156,2	18,5
Kommunal soha, transport, kapital qurilish va qurilish industriyasi kompleksi	458,8	21,3
Qishloq va suv xo'jaligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash hamda iste'mol tovarlari kompleksi	295,1	20,0

Ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy muhofaza kompleksi	13,1	20,2
Respublika bo'yicha jami	2079,5	20,38

Manba: Oz. Ris. Statistikasi materiallari.

Mazkur tadbir orqali korxonalarining mavjud qarzlarning vujudga kelish sabablari va ularni to'lash imkoniyatlari o'rganiladi. Har bir korxonaning ahamiyati, yaxlit xo'jalik tizimida tutgan o'rni, boshqa korxonalar bilan ishlab chiqarish va xo'jalik aloqalarini hisobga olgan holda mazkur qarzlarni to'lash muddatlarini kechiktirish, ular bo'yicha qo'llanishi mumkin bo'lgan turli sanksiyalarni bekor qilish, zarur hollarda, ushbu qarzlarni umuman ro'yxatdan chiqarish kabi choralar belgilanishi mumkin. Xususan, 2015- yil davomida ham davlat tomonidan real sektor korxonalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 50 ta korxonaning byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlar bo'yicha muddati o'tgan hamda joriy kreditor qarzdorligi qayta ko'rib chiqildi. Bu mazkur korxonalar tasarrufida 350 milliard so'mdan ortiq mablag'ni qoldirish, ularning ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish imkonini berdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999-yil 5- fevraldagi 54-sonli karori bilan tasdiklangan "Maxsulot (ishla, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi xamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi tugrisida Nizom" ning kabul kilinishi banklar, korxonalar, solik organlari va barcha xujalik yurituvchi sub'ektlar uchun maxsulot ishlab chiqarish (ish va xizmatlar)ni va sotish xarajatlarini xisobga olib borishnig yagona uslubiyoti asoslarini belgilab berdi.

Mazkur Nizom korxonalarda buxgalteriya xisobini, solik organlarida solikka tortish jarayonini, shuningdek, korxonalarining raqobatbardoshligini aniqlash va boshqa maqsadlarda keng qo'llaniladi.

Ushbu Nizomning asl maqsadi xarajatlarni buxgalteriya xisobida tog'ri va to'lik aks ettirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy xisobotini tuzishni ular faoliyatini va solik solinadigan bazani to'g'ri aniqlashdan iborat.

Endilikda xarajatlar mazkur nizomga muvofiq quyidagi to'rtta gurux bo'yicha tavsiflanadi:

1. Maxsulotning ishlab chiqarish tannarxi .(bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar, mehnat xarajatlari, boshqa xarajatlar, shu jumladan, yuklama xarajatlar)

2. Davr xarajatlarini (sotish xarajatlari, boshqarish xarajatlar va zararlar)

3. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar (foizlar bo'yicha xarajatlar, salbiy kurs farqlari, qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan mablag'larni qayta baholash, moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar)

4. Favqulodda zararlar

Respublikamiz paxtani qayta ishlovchi korxonalarini misolida xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizomning amaliy jihatlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarini shakllantiradi.

Bir so'mlik tovar maxsulotga ketgan xarajat ishlab chiqarish samaradorligi kursatkichlaridan biridir. Bu kursatkich korxonada tovar maxsulot tula tannarxining shu maxsulot ulgurji narxlariga nisbati bilan aniqlanadi. Masalan, tovar maxsulotning qiymati 100 million so'mni, shu maxsulotning tula tannarxi 90 million so'mni tashkil etsa, u holda tovar maxsulotning har so'miga kilingan xarajatlar kursatkichi 90 tiyinga foyda esa 10 tiyinga teng bo'ladi. Demak, bu kursatkichda foyda bilan maxsulotning tula tannarxi ortasidagi bog'liqlikni yakkol kurishimiz mumkin. Bu kursatkichni taxlil qilish uchun kerakli ma'lumotlar yillik xisobotning 1-T-"Sanoat maxsulotining tannarxi tug'risidagi xisobotning nomli formasidan olinadi.

Bir so'mlik tovar maxsuloti uchun kilingan xarajatlarning omilli taxlili uning rejasidagi quyidagi omillarning ta'sirini aniqlashni kuzda tutadi:

1. Ishlab chiqarilgan maxsulot tarkibi va assortimentining o'zgarishi.

2. Aloxida olingan maxsulotlar tannarxining o'zgarishi .

3. Material resurslarga belgilangan baxolar va tahriflarning o'zgarishi.

4. Tayyor maxsulot ulgurji narxining o'zgarishi.

Agar jami ishlab chiqarilgan maxsulot hajmida xarajat darajasi past bulgan maxsulotlarning ulushi ortsa 1 so'mlik tovar maxsulot uchun kilingan xarajatlar kamayadi, yoki maxsulot umumiy hajmida xarajat yukori bulgan maxsulotlar ulushi ortsa, 1 so'mlik tovar maxsuloti uchun kilingan xarajatlar ko'payadi.

Agar aloxida olingan maxsulotlar tannarxi xisobot davrida pasaysa, xarajatlar darajasi kamayadi, aksincha, maxsulotlar bazaga nisbatan ko'paysa, 1 so'mlik tovar maxsuloti uchun qilingan xarajatlar darajasi ortadi.

Agar xisobot davrida istehmol kilinayotgan xom-ashyo, material va energiya resurslariga belgilangan baxolar va tahriflarning oshishi yuz bergan bo'lsa bu xarajatlar darajasini oshirishga, aksincha, bu baxolarda pasayish yuz bergan bo'lsa 1 so'mlik tovar maxsuloti uchun qilingan xarajatlar darajasini kamaytirishga sabab bo'ladi.

Bir so'mlik tovar maxsuloti xarajatlari darajasini aniqlovchi omillarning o'zaro bog'liqligi

		Bir so'mlik tovar maxsulotlari xarajatlarini o'zgarishi			
Maxsulotlarni i/ch xajmini o'zgarishi		Maxsulotlarni i/ch strukturasi o'zgarishi		Maxsulot sotilish bahosining o'rtacha darajasining o'zgarishi	
Solishtirma o'zgaruvchi xarajatlar darajasi		Doimiy xarajatlar yigindisining o'zgarishi		Inflyatsiyaga bog'liq xamda narxning o'zgarishi	

Maxsulotlarning resurs xajmi darajasining o'zgarishi	foydalanilayotgan resurslarini narxini o'zgarishi	Maxsulot sifatining o'zgarishi
--	---	--------------------------------

Manba: Bituruv malakaviy ishining bajarish jarayonidagi malumot asosida.

3.3.2-chizma.

Agar xisobot davrida ishlab chiqarilgan maxsulotning sifatini yaxshilanishi yoki ushbu maxsulotga talabning ortganligi xisobiga tayyor maxsulotning ulgurji baxosi ortsa, xarajatlar darajasi pasayadi, yoki, aksincha maxsulot sifatining yomonlashuvi yoki istehmol bozorida ushbu turdagi maxsulotlarning taklifi ortib ketishi xisobiga tayyor maxsulot baxosi pasaysa, 1 so'mlik tovar maxsuloti uchun kilinan xarajatlar darajasi ortadi.

Xarajatlar darajasiga maxsulot tarkibi va assortimentining o'zgarishini tahsirini topish uchun rejadagi xarajatlarni xakikatdagi maxsulot xajmi va assortimentiga kayta xisoblangan reja mahlumotlar bilan solishtirish lozim.

Xarajatlar darajasiga maxsulotlar tannarxi o'zgarishini tahsirini topish uchun rejadagi baxolarda kayta xisoblangan xakikiy xarajatlarni, rejadagi xarajatlarni maxsulotning xakikatdagi xajmi va assortimentiga kayta xisoblangan mahlumotlar bilan solishtirish lozim.

Xarajatlar darajasiga material resurslarga belgilangan baxolar va tahriflarning o'zgarishini tahsirishi topish uchun xakikatdagi xarajatlarni taksimlab topilgan kursatkichni usha xarajatlarni rejadagi baxolarda xisoblangan darajasi bilan solishtirish mumkin.

Xarajatlar darajasiga tovar maxsulotiga belgilangan baxolarning tahsirini topish uchun xakikatdagi xarajatlarni , shu xarajatlarni tovar maxsulotini rejadagi ulgurji baxolarida xisoblangan darajasi bilan solishtirish lozim.

Xisoblab topilgan mahlumotlar yigindisi xakikatdagi va rejadagi xarajatlar urtasidagi farkni bildiruvchi ushbu formulaning natijasiga teng bulishi lozim.

XULOSA

Har qanday xo'jalik faoliyati olib borish uning sharti va maqsadi – foyda olishdir. Xo'jalik yuritish samaradorligi ko'rsatkichi, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning moliyalashtirishning bosh manbai, investitsion loyiha va programmalarni tanlashdagi asosiy ko'rsatkich, kapital qo'yilmalarni shakllantirishdagi asosiy ko'rsatkich ham foyda va foydalilik ko'rsatkichidir.

Shunday qilib bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligining eng birinchi belgisi sifatida – xarajat birligi hisobiga mahsulot sifatini yuqori bo'lishini hamda mahsulotlarni rakobatbardoshligini ta'minlagan holda olinadigan foydani eng yuqori bo'lishiga erishish yotadi. Bu maqsad har qanday ishlab chiqarish usuli, har qanday jamiyat, har qanday mehnat kollektivi va har qanday ishlovchi uchun xosdir. Bozor munosabatlari sharoitida korxonalar faoliyatni yuritish jarayonida moddiy va pul xarajatlarini sarflaydilar. Korxonaning umumiy xarajatlari ichida ishlab chiqarish xarajatlari eng katta salmoqqa ega. Ishlab chiqarish xarajatlari majmuasi korxonaga maxsulot ishlab chiqarish qanchaga tushishini ko'rsatadi, ya'ni maxsulotning ishlab chiqarish tannarxini tashkil qiladi.

Yuqoridagilarning negizida korxonalar va tashkilotlarda mahsulot tannarxini pasaytirishning to'g'ri tashkil etilishi yotadi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari asosida «Andijon-Paxta» OAJ da mahsulot tannarxini kamaytirish yo'nalishlarini amalga oshirilishida quyidagilarga jiddiy e'tibor qaratishni taklif qilamiz:

- Mahsulot tannarxini rejalashtirishning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tezlatishga, sanoatning ilg'or strukturasi shakllantirishga, uni balansli va mutanosib rivojlantirishga, ishlab chiqarishning iqtisodiy va ijtimoiy hamda ilmiy va texnikaviy salohiyatdan samarali foydalanishga ta'sirini kuchaytirish;
- Ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirishning asosiy yo'nalishlaridan biri bu fan-texnika taraqqiyotining (FTT) yutuqlaridan oqilona foydalanishga erishishdir. FTT yutuqlaridan foydalanish mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan, xom ashyo materiallaridan yoqilg'i

resurslaridan yanada to'laroq foydalanishga imkon beradi. Shuningdek, yangi unumdorligi yuqori bo'lgan, samarador mashina, dastgoh va yangi texnologik jarayonlar yaratilishi, uni ishlab chiqarishga joriy etish pirovard natijada korxonada ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga sharoit yaratadi. Fan-texnika taraqqiyotining XX asr ikkinchi yarmidagi o'ziga xos jihati printsiptial yangi texnologik ishlab chiqarish usuliga o'tishi bilan xarakterlanadi. Uning mavjud texnologik ishlab chiqarish usullaridan ustunligi faqat nisbatan yuqori iqtisodiy samaradorligida emas, balki sifat nuqtai nazaridan yangi moddiy ne'matlar va xizmatlarni ishlab chiqarish imkoniyatlaridadir. Xarajatlarni pasaytirishning asosiy yo'nalishlaridan biri bu ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishni takomillashtirishdir. Ushbu yo'nalish ishlab chiqarishda yo'qotishlarni kamaytirish yo'li bilan xarajatlarni pasaytirish bu esa o'z navbatida jonli mehnatni iqtisod qilishga ya'ni ishlab chiqarish unumdorligini oshirishga olib keladi.

- Prognozlash (bashorat qilish) bilan istiqbolli va joriy mahsulot tannarxini rejalashtirish o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash. Bu vazifalarni amalga oshirish texnologiyalaridan keng foydalanish;
- Reja ko'rsatkichlari tizimini takomillashtirish, ularni pirovard natijalar sari yo'naltirishni kuchaytirish hamda mehnat, moddiy, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini, mahsulotning sifati va uni yangilash miqyoslarini aks ettiradigan ko'rsatkichlardan keng foydalanish;
- Materiallar sarfi me'yorlarini qayta ko'rib chiqish, ishlab chiqarishga sarflanayotgan xom ashyo va materiallar sarfini kamaytirish yo'llarini qidirib topish;
- Korxonada foydalanilmayotgan ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish, ishlamayotgan ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish va ulardan maksimum darajada foydalanish;
- Mahsulot tannarxini rejalashtirishning ilmiy saviyasini, darajasini oshirishdir. Rejalar ilmiy tarzda tuzib chiqilishi, iqtisodiy va ijtimoiy

jihatdan asoslab berilgan va to'la-tekis balanslashtirilgan bo'lishi kerak. Shundagina rejalashtirishda tavakkalchilik yuz berishining oldini olish hamda ishlab chiqarishning natijaviyligini yuqori darajaga ko'tarish bo'yicha imkoniyatlarni ishga solish mumkin bo'ladi. Ishlab chiqarishni rivojlantirishni shunday rejalashtirish kerakki, natijada mahsulot ishlab chiqarish hajmi ko'paysin, mehnat unumdorligi borgan sari ko'tarilsin, mahsulotning tannarxi pasaysin, korxonada foydasi oshib borsin. Buning uchun eng avvalo, investitsiyalardan, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan oqilona va samarali foydalanish zarur.

- Mahsulot tannarxini kamaytirishda korxonaga ushbu jarayon bilan shug'ullanadigan iste'dodli va iqtidorli, bilimdon, o'z ishining ko'zini biladigan kadrlarni jalb qilish lozim. Faqat shunday mutaxassislargina bu sohadagi o'zboshimchachiklar va sub'ektivizmga batamom barham berishi mumkin bo'ladi.
- Mahsulot tannarxini kamaytirishda reja tuzish ishning bir qismigina xolos. Uning bajarilishi va oshirib bajarilishi har bir rahbar va xodimning aql zakovati, tashabbuskorligi va fidokorona mehnatiga bog'liqdir. Agarda jamoa va uning xar bir xodimi o'z vazifalarini muntazam, bekamu-ko'st bajarib borsa belgilangan rejalar albatta, muvaffaqiyatli bajariladi.

Belgilangan ushbu vazifalarni amalga oshirish korxonada mahsulot tannarxini kamaytirishga olib boradi. Natijada, korxonalarda foydalilik darajasi yuksalib boradi, xodimlarning mehnatdan manfaatdorligi ortadi va korxonada murakkab sharoitda yashab qolishga va o'z faoliyatini davom ettirishga erishadi hamda mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojiga o'z hissasini qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.:O'zbekiston, 2015.- 40 b.
2. "Xususiy korxonalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Qonun va qarorlar. – T.: O'zbekiston, 2004, №3.
3. «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (o'zgartishlar kiritilgan). O'zbekiston Respublikasining Yangi qonunlari, 25-son. –T.: Adolat, 2004.
4. "Investitsiya faoliyati to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Qonun va qarorlar. –T.: №25, O'zbekiston, 2004.
5. «Mahsulot belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari to'g'risida»gi O'zbekiston respublikasining Qonuni (o'zgartishlar kiritilgan). O'zbekiston Respublikasining Yangi Qonunlari, 25-son. - T.: Adolat, 2004.
6. «Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni // Tadbirkorlikka oid qonun hujjatlari to'plami. 1-tom. - T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2002.
7. «Ochiq aksiyadorlik va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2001 yil 6 dekabr // Tadbirkorlikka oid qonun hujjatlari to'plami. 1-tom. - T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2012.
8. «Xo'jalik shirkatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2001 yil 6 dekabr // Tadbirkorlikka oid qonun hujjatlari to'plami. 1 tom. - T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2002.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1717-sonli «Mustahkam oila yili» Davlat dasturi. 2012 yil 27 fevral .
10. 2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori PQ-1442., 15.12.2010 y.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-1675-sonli Qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 24 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat

byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-1449-sonli Qarori.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kredit berishni ko'paytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2011 yil 11 martda imzolangan PQ-1501-sonli Qarori.

14. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2011 yil 24 avgustda chiqarilgan PF-4354-sonli Farmoni

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 4 maydagi "Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4296-sonli Farmoni. // Xalq so'zi, 2011 yil 5 may.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlarini tashkil etish va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini yanadatakomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2011 yil 12 maydagi Qarori. // Xalq so'zi, 2011 yil 13 may.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" davlat dasturi to'g'risida"gi 2011 yil 7 fevraldagi Qarori.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash hajmlarini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2011 yil 11 martdagi PQ-1501-sonli Qarori.

19. «To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. // Xalq so'zi, 11 aprel 2012y.

20. "Monopoliyaga qarshi ishlarni tartibga solish va raqobatni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" : O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 fevraldagi PF-4191-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami – 9 son – 2010- 9 mart.

21. «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2008 yil 28 noyabr) // Xalq so'zi, 2008 yil 29 noyabr .

22. «To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni // Xalq so'zi, 2005 yil 12 aprel.

23. «Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni // Xalq so'zi, 2005 yil 15 iyun.

24. «Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni // Xalq so'zi, 2003 yil 7 may.

25. «Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 15.06.2005y.

III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari

26. «2008 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisining qarori. // Xalq so'zi, 2009 yil 15fevral .

IV. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

27. “2016-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohatlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi” O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasi18.01.2016

28. Islom Karimov. 2015- yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. – T.: “O'zbekiston”, 2012. – 36 b.

29. Karimov I.A.«Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti» mavzusidagi xalqaro konferentsiyaning ochilish marosimidagi nutq // Xalq so'zi, 2015-yil 18 fevral .

30. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma`ruza), “Xalq so'zi”, 2010 yil 12 noyabr (№ 220),

31. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. //Xalq so'zi, 2011 yil 22 yanvar .

32. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi . 2009 yil 14 fevral , № 33-34 (4696-4697)

V. O'zbekiston Respublikasi vazirliklarining huquqiy - me'yoriy hujjatlar

33. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi tug'risidagi Nizom. -T.: 1999 yil, 5 fevral

VI. Darsliklar

34. Biznes- planirovanie: Uchebnik /pod red. Popova V.M., Lyapunova, S.I Mlodiko S.G -2-e izd., pererab. i dop. - M.: Finanso' i statistika, 2006. - 816s.

35. Maxmudov E.X., Isoqov M.Yu. Biznes - rejalashtirish. O'quv qo'llanma. –T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005, – 160 b.

36. Maxmudov E.X. Korxonalar iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005, – 160 b.

37. Sharifxo'jaev M., Abdullaev Yo. Menejment. -T.: O'qituvchi 2001, -702

VII. O'quv qo'llanmalar

38. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2011 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi” mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – “O'qituvchi” NMIU, 282 b.

39. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2011. – 376 b.

40. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir" hamda "Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir" nomli ma`ruzalarini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010. – 281 b.
41. Bu muqaddas Vatanda azizdir inson. O'zbekistonning 19 yil mustaqil taraqqiyot yo'lida jamiyatni modernizatsiyalash va iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning dadil odimlari va muvaffaqiyatlari: talaba yoshlar va keng jamoatchilik bilan uchrashuvlarda foydalanish uchun ijtimoiy-iqtisodiy va ma`naviy-ma`rifiy mavzuda ilmiy-ommabop risola. – T.: "Iqtisodiyot", 2010. - 148 b.
42. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT sammitining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent: "Iqtisodiyot" nashriyoti, 2010. – 146 b.
43. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrdagi qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi" mavzusidagi ma`ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua, T.: "Iqtisodiyot" 2010.-281 b.
44. Alan V. Biznes-plan: Uchebno - prakt. posobie / per. s angl. Almazovoy N.I., Bulinoy I.Yu. – 3-e izd. – M.: Izd-vo Prospekt, 2005. – 232 s.
45. Abdukarimov I.T. va boshqalar Korxonalar iqtisodiy salohiyati tahlili. T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi 2003, – 256 b.
46. Barrou P. Biznes – plan, katoro'y rabotaet. / Pol Barrou. – M.: Al pina Biznes Buks, 2006. - 288 s.
47. Burov V.P., Lomakin A.L., Moroshkin V.A. Biznes- plan firmo'. Teoriya i praktika: Uchebnoe posobie. – M.: INFRA-M, 2006. - 192s.
48. Brink I.Yu., Savel yeva N.A. Biznes-plan predpriyatiya. Teoriya i praktika G' Seriya «Uchebniki i uchebno' posobiya» - Rostov nG'D.: Feniks, 2003, -384 s.
49. Goremo'kin V.A., Nesterova N.V. Entsiklopediya biznes planov: Metodika razrabotki. 75 real no'x obraztsov biznes – planov. - M.: Os -89, 2003, – 1104s.
50. Volkov A.S., Marchenko A. A., Biznes –planirovanie: Uchebnoe posobie. – M.: Izdatel stvo RIOR, 2005. – 81 s.

51. Vladimirova L.P. Prognozirovaniye i planirovaniye v usloviyax ro'nka: Uchebnoe posobie. - 5-e izd., pererab. i dop. - M: Izdatel sko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i Ko», 2005. - 400 s.
52. Goremo'kin V.A. Entsiklopediya biznes-planov: metodika razrabotki. 75 real no'x obraztsov biznes-planov. – 2-e izd., pererab. i dop. – M.: «Os -89», 2005. – 1120 s.
53. Mualliflar guruhi. O'zbekistonda biznes keyslar: O'zbekiston Respublikasidagi biznes ta'limotida “Keys-stadi” uslubining qo'llanishi. – T.: Akademiya, 2006, – 645 b.
54. M.Yu. Isakov. “Biznes-rejalashtirish” fani bo'yicha ta'lim texnologiyasi: Uslubiy qo'llanma G' “Iqtisodiy ta'limdagi o'qitish texnologiyasi” seriyasidan. T.: TDIU, 2009, 177 b.
55. Isakov M.Yu. «Biznes-rejalashtirish» fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua -T.: TDIU, 2009, 146 bet.
56. Maxmudov E.X., Isakov M.Yu., “Biznes-rejalashtirish fanidan mustaqil ish bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar”, -T.: TDIU, 2009, 12 b.
57. Maxmudov E.X., Isakov M.Yu., “Biznes-rejalashtirish” fanidan tizimi asosida talabalar bilimini baholash bo'yicha uslubiy ko'rsatma”, -T.: TDIU, 2009, 12 b.
58. Maxmudov E.X. Korxonalar iqtisodiyoti. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2004, – 208 b.
59. Maxmudov E.X., Isakov M.Yu. Biznes planirovaniye. Uchebnoe posobie. – T.: Izdatel stvo Literaturnogo fonda Soyuzu pisateley Uzbekistana, 2004. - 160 s.
60. Maxmudov E.X., Isakov M.Yu. Investitsiyalar iqtisodiy o'sishning resurslar asosi G'G' «O'zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish yillarida» Maqolalar to'plami. 5-qism. - T.: TDIU, 2005, – 28-48 b.

VIII. Internet saytlari

61. www.encycl.accoona.ru
62. www.technormativ.ru/main.phpes,
63. www.dev.csoft.spb.ru/Doclist/folder/648.html,
64. www.book.uz, study40.com.ru/book-44408.html.
65. www.stat.uz